

Otello va Hamlet bir xil obraz...mi?!

(Amaldagi 9-sinf "Adabiyot" darsligi yuzasidan ba'zi mulohazalar)

"Adabiyot" darsligidagi (2014) "Otello" fojiasi to'g'risida mavzusida berilgan Otello haqidagi bir qancha fikrlar 2019-yili nashr etilgan "Adabiyot" darsligidagi "Hamlet" fojiasi to'g'risida mavzusiga to'g'ridan to'g'ri, ko'chirib qo'yilgan.

7-bet

"O'zbek bo'ldi bu qalam!"

Tog'ay Murod asarlarida timsollar talqini va taqdiri

O'qituvchi har bir mavzuni o'tishdan avval o'quvchining ko'ngliga o'sha asarga nisbatan cho'g' sola bilishi kerak.

10-bet

Yozuvchisi yo'q o'zbek bolalar adabiyoti

Bolalar uchun kitoblar bor. Ko'pi chet el adabiyotidan tarjimalar va chiroyli muqovalarda nashr etilgan. Bunday ajoyib muqovaning orqasida nima yashiringan? Bu kitoblarning mazmuni qanday?

14-bet

Kuch – bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqq boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 28-avgust, juma № 31 (9304)

Xalq ziyolilari gazetasi

Adabiyot darsi — hayot darsi bo'lmog'i lozim



Yaqinda mamlakatimiz Parlamenti tomonidan qabul qilingan va Prezident tomonidan imzolalanib, kuchga kirishi kutilayotgan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga ko'ra, o'rta ta'limning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarda mustaqil fikrlash va mustaqil tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Umumiy ta'lim oldiga bunday maqsadning qonun bilan mustahkamlab qo'yilishi bejiz emas. Mustaqil fikrlash va mustaqil tahlil ko'nikmalari shakllangan o'quvchi ongli ravishda o'z kelajagini belgilay oladi, keyingi hayot yo'llarida oldiga qo'yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli ado eta oladi, "salla desa kallani ko'tarib keladigan" ijrochi emas (bunday ijrochilar bilan mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash imkonsiz), balki chuqur tahlil asnosida muammolarga samarali yechim taklif qila oladigan mutaxassis bo'lib yetishadi. Demak, umumiy

ta'limda o'qitiladigan har bir fan yuqoridagi maqsadga xizmat qilishi — o'quvchilarda mustaqil fikrlash va tahlil ko'nikmalarini shakllantirishi lozim.

Umumiy o'rta ta'lim dasturida asosiy fanlardan biri bo'lgan adabiyot fani bu vazifani bajara olyaptimi? Afsuski, yo'q. Aslida, adabiyot darslarining kutilgan natija bermayotganligi bilan bog'liq muammolar, ularning sabablari bizga qadar ham bir necha marotaba ijtimoiy tarqmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida, xususan, "Ma'rifat" gazetasining o'zida ham tahlil qilindi, mutaxassislar tomonidan qator mulohazalar bildirildi va, aytish joizki, mazkur tanqidiy qarashlar ta'lim sohasidagi islohotlarning, qonunlar ijrosining jadallashuviga ozmi-ko'pmi xizmat qilganini va qilayotganini ham o'mida ta'kidlab o'tish joiz.

2-bet

Billur ko'zgular toptalgan nashr



5-bet

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Darslar yana onlayn tarzda ham olib boriladigan bo'lsa, muhtoj oilalarni vositalari bilan ta'minlash chorasini ko'rish kerak. Yana, internet tezligini oshirish choralarini ko'rish zarur. O'qituvchilarga arzon megabayt paketlari chiqsa minnatdor bo'lardik.

Dilobar BERDIYEVA

Bolalar faqat tashuvchi bo'lgani, kam kasallangani yoki ularga xavf kam bo'lgani uchun maktablar ochilayotgan bo'lsa, o'qituvchilarning xavfsizligi-chi? Axir o'quvchi tashuvchi bo'lishi mumkin-ku!

Xosiyat JUMABOYEVA

Maktab boshlansa har ikki soatda o'quvchilar maskasini almashtirish buyurilyapti. Shunda bir o'quvchiga kuniga 3 ta maska kerak bo'ladi. Bu 6 000 so'm degani. Ota-onalar har bir farzandiga faqat maska uchun kuniga shunchadan pul ajratishiga ko'zim yetmaydi. Ba'zi oilalarning 3-4 nafardan maktabga qatnaydigan bolalari bor. Yana antiseptik, salfetka degandek ...

Mashhura KARIMOVA

Maktabni qay tartibda boshlash bo'yicha olib boriladigan so'rovnomalarni inobatga olinamikan? Darslar onlayn bo'lishidan ko'proq qishloq bolalari zarar ko'radi. Qishloqlarda hademay paxta, kuzgi yig'im-terim mavsumi boshlanadi. Qaysi otana onlayn darsni kuzatadi, deb o'ylaysiz? Kerak bo'lsa bolalari bilan dalaga ketadi.

Rahbaroy MELIBOYEVA

Bizni internetda ham kuzating!

www.marifat.uz /marifat.uz @marifatziyo

Adabiyot darsi — hayot darsi bo'lmog'i lozim

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Biroq, adabiyot darslarini sifat jihatidan yuqori darajalarga olib chiqish uchun hali ko'p to'rt kishiga to'g'ri keladi.

Xo'sh, adabiyot darslarining o'z samarasini ko'rsatishiga, o'quvchilarda hayotda kerakli kompetensiyalarning shakllanishiga qanday omillar to'stinlik qilmoqda?

Birinchi omil. Ma'lumki, davlat ta'lim standartlari har bir fanning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Standartlarda maqsad va vazifalar qanchalik aniq va barcha uchun tushunarli tarzda belgilab berilsa, fanning samarali o'qitilishini ta'minlash va nazorat qilish shunchalik osonlashadi. Amaldagi (2017-yilda qabul qilingan) "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi davlat standartlari"da adabiyot bo'yicha maktab (litsey, kollej) bitiruvchilariga qo'yilgan malaka talablari tahlil qilinsa, adabiyot asosan nutq ko'nikmalarini rivojlantiruvchi yordamchi fanga aylanganining guvohi bo'lishimiz mumkin. "Tinglab tushunadi", "ifodali o'qiy oladi", "qayta hikoya qila oladi", "yoddan aytadi", "adabiy til me'yorlariga rioya qilgan holda to'g'ri va tushunarli so'zlaydi", "xalq maqollaridan foydalana oladi", "sahna ko'rinishida rol ijro etadi" — chuqurroq tahlil qilinsa, bu kompetensiyalarning bevosita adabiyotga aloqasi yo'q, ular asosan nutq, xotira va plastika (sahna mahorati) bilan bog'liq. Standartda "badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi" rukiandagi kompetensiyalar esa aksar hollarda shu qadar mujmal va mavhum berilganki, ular yordamida fanni o'zlashtirish darajasini baholash imkonsiz. Masalan, "musiqqa va rangtasvir asari zamiridagi badiiy jozibani his qila oladi", "adabiyot va uning muayyan davri, janri haqida keng tushuncha, tasavvurlarni tushuntira oladi" singari o'ta mavhum tarzda ifodalangan maqsad va vazifalar adabiyot o'qituvchisiga darsni rejalashtirishda hech qanday yordam bera olmaydi.

O'quv dasturlari va rejalarni tuzish bo'yicha aksar mutaxassislarning fikricha, ta'lim dasturlarining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri — ta'limiy vazifalarning qay darajada aniq ifodalinishidir. Vazifalar shu darajada aniq qo'yilishi kerakki, o'qituvchi mazkur vazifalar o'quvchilar tomonidan qay darajada bajarilganligini kuzatib, baholay olishi lozim. O'qituvchi standartda berilgan vazifani kichik qadamlarga bo'lib, muayyan dars davomida o'quvchilarga qadam-baqadam ushbu vazifalarga erishishda yordam bera olishi talab qilinadi.

Masalan, Buyuk Britaniya ta'lim standartlarida adabiyot fanidan maktab bitiruvchisi erishishi kerak bo'lgan vazifalardan biri quyidagicha ifodalangan: "yozuvchining tanlagan so'zlarini, grammatik va struktural shakllarni tahlil qiladi, ularning o'quvchiga ta'sirini baholay oladi". Avstraliya maktab bitiruvchilariga qo'yilgan talablardan biri esa quyidagicha ifodalangan: "badiiy matn tahlil qilish asosida asarning mustaqil talqinini yarata oladi". Rossiya federal

ta'lim standartlarida esa maktab bitiruvchisi "tarixiy, tarixiy-madaniy kontekstni va adib ijodi kontekstini hisobga olgan badiiy matn tahlil qila olishi" ko'zda tutilgan.

Har qanday adabiyot o'qituvchisi o'quvchining ushbu vazifalarni bajara oladigan bo'lishi uchun qanday qadamlarni qo'yish lozimligini va yakuniy natijani qanday yo'llar bilan kuzatib, baholash mumkinligini tasavvur qila oladi. Bu esa fanni o'qitishning samaradorligini ta'minlaydi.

Keltirilgan turli davlatlar standartlaridagi malaka talablarining yana bir muhim xususiyatiga e'tibor qaratish lozim. Berilgan vazifalar adabiyot faniga xos, ya'ni ushbu kompetensiyalarni boshqa fan doirasida shakllantirishni tasavvur qilish mumkin emas va bu kompetensiyalar shakllanishi uchun o'quvchilar adabiyotshunoslikka oid nazariy tushunchalardan ham xabardor bo'lishlari lozim. Bu esa adabiyotning maktab dasturida ikkilamchi, yordamchi fan sifatida emas, balki o'z maqsad va vazifalari, o'rganish obyekti, nazariy asosi mavjud mustaqil fan sifatida fanlar kesimida o'z o'rniga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Demak, adabiyot fani maktab ta'limida o'z o'rniga ega bo'lishi va umumiy maqsadga — mustaqil fikrga ega bitiruvchilarni tarbiyalashga hissa qo'shishi uchun ta'lim standartlarida ushbu fanni o'qitishdan kutilayotgan maqsad va vazifalar aniq, konkret tarzda ifodalinishi lozim.

Ikkinchi omil. Ta'lim jarayonining samarasini ta'minlovchi muhim komponentlardan biri baholash tizimidir. Baholash tizimi standartlarda belgilangan maqsad va vazifalarga qay darajada erishilganligini ko'rish imkonini bermog'i lozim. Ya'ni, ta'lim standartlari va baholash tizimi o'rtasida uzviylik bo'lishi hamda standartlarda belgilangan vazifalarga qay darajada erishilganligini ko'rish imkonini beruvchi baholash usullari va vositalari tanlanishi kerak.

Formativ (shakllantiruvchi) baholash tizimi o'qituvchi va o'quvchilarga ta'lim jarayoni qay darajada samarali tashkil qilinayotgani, o'rganuvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish jarayoni qay darajada samarali ke-

chayotgani haqida muttasil ma'lumot berib turishi, o'qituvchi bu ma'lumot asosida ta'lim jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kirita olishi lozim. Misol uchun, o'qituvchi o'quvchilar aruz va barmoq vaznida yozilgan asarlarni ajratishda qiyinalishayotganini ko'rsa, mavzuga qaytib, o'quvchilar bilan ushbu ko'nikmani shakllantirish ustida ishlashi kerak. **Summativ (xulosalovchi) baholash** esa standartda belgilangan vazifalarga qay darajada erishilganiga xolis (tashqaridan) baho berish imkonini ta'minlashi lozim. Masalan, 11-sinf oxirida adabiyot fani bo'yicha o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi mustaqil, maktabga bevosita aloqasi bo'lmagan komissiya tomonidan baholansa, "qozonda bori cho'michga chiqadi".

Afsuski, bizda baholash tizimi o'zining yuqorida qayd etilgan har ikki vazifasini bajarmaydi. Shakllantiruvchi baholash shunchaki jurnalda har dars ma'lum sondagi o'quvchilar baholanishi kerakligi uchungina o'tkaziladi. Shakllantiruvchi baholash jarayonida olingan ma'lumot o'qituvchilar tomonidan keyingi qadamlarini belgilash uchun ishlatilmaydi, chunki yuqoridan tushirilgan o'quv dasturi va soatlar taqsimoti bunga imkon bermaydi. Xulosalovchi baholash esa standartda belgilangan vazifalar bilan umuman bog'liq emas — adabiyot fanidan odatda mavhum, istalgancha "olib qochsa bo'ladigan" mavzular beriladi va o'quvchilar yoki darslikda berilgan gaplarni qaytarishlari, yoki mavzu bo'yicha "aravani quruq olib qochishlari" mumkin bo'ladi. Misol uchun, Respublika ta'lim markazining rasmiy saytidagi "2019-2020-o'quv yilida umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinf o'quvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazish bo'yicha adabiyot fanidan metodik tavsiya va materiallar"da berilgan "bilet"lar tahlil qilinsa, insho mavzulari ("Erkin Vohidov — nazm va nasrda buyuk ijodkor", "Bolalikning beg'ubor olami", "Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir..." singari) o'quvchidan adabiyot darslarida shakllantirilgan qanday kompetensiyalarni namoyish qilishni talab qilayotganini tushunish mumkin emas. Vaholanki, summativ baholash uchun yozma ishlar mavzulari shunday tuzilishi kerakki, o'quvchilarning fikrlashini cheklamagan holda, ular-

dan nima kutilayotgani haqida aniq tasavvur bersin.

Solishtirish uchun yana xorij tajribasiga murojaat qilsak. Britaniya maktab bitiruvchilari uchun adabiyot fanidan yakuniy davlat attestatsiyasiga taklif qilingan insho mavzularidan namunalari: "Husayniy va Friel asarlarida konfliktning insoniy munosabatlarga ta'siri qanday tasvirlanganini solishtiring". "Myurreyning "O'sish" va Fantorpnig "Kichik rol" she'rlarini o'qing (izoh: she'rlar matnlari o'quvchining test kitobida keltiriladi). Har ikkala she'rda mualliflar yoshi katta kishining bolalik voqealariga qaytishini qanday yo'llar bilan tahlil qilishganini solishtiring".

Amerika Qo'shma Shtatlari maktab bitiruvchilari yakuniy attestatsiyasidan: "Tomas Hardining "Kesterbrij meri" asaridan berilgan parchani o'qing. Ohang, so'zlar va detallarning tanlanishiga e'tibor bergan holda, Maykl va qizi o'rtasidagi murakkab munosabatlarni qanday tasvirlanganini tahlil qiling."

Rossiya maktablari Yagona davlat imtihonida taklif qilingan insho namunalari: "Maksim Gorkiyning "Izergil kampir" hikoyasida romantik adabiyotning qanday xususiyatlari namoyon bo'ladi?", "Lermontovning "Misiri" dostonida peyzaj qanday rol o'ynaydi?".

Keltirilgan misollarda quyidagi umumiy xususiyatni kuzatish mumkin: **badiiy matn mustaqil tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'lmagan, adabiy-nazariy tushunchalardan xabari bo'lmagan o'quvchi qo'yilgan savollarga javob bera olmaydi.** Savollar shunday tuzilganki, ularga javob berishda "olib qochish"ning iloji yo'q.

Demak, insholar va yozma ishlar uchun savollar tuzish metodikamizni tubdan qayta ko'rib chiqishimiz, beriladigan vazifalarni adabiyot o'qitish vazifalariga uyg'unlashtirishimiz talab qilinadi.

Adabiyot fanining asl maqsadi chetga surilib, mayda-chuyda detallarni yod olish faniga aylanishiga "munosib" hissa qo'shayotgan yana bir muhim omilni hisobga olish lozim.

Yuqori sinflarda aksar o'quvchilar asosiy e'tiborni OTMlarga kirish imtihonlarida yuqori ball to'plashga qaratishlari sir emas. Umuman olganda, bu holat faqat O'zbekistonga xos emas. Test topshiruvchilar uchun muhim qarorlar qabul qilinishiga asos bo'ladigan, "yuqori ta'sir kuchiga ega testlar" deb ataladigan bunday imtihonlar o'quvchilar nimani va qanday o'rganishini belgilab berishi ko'p davlatlar tajribasida isbotlangan. Bizning sharoitda Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan OTMlarga kirish test sinovlari shunday yuqori ta'sir kuchiga ega test hisoblanadi va yuqori sinflar o'quvchilari uchun "dasturulamal" vazifasini o'taydi. OTMlarga kirish test sinovlarida ishlatiladigan adabiyot bo'yicha test topshiriqlarini tahlil qilsak, ularning asosiy maqsadi o'quvchilar xotirasini tekshirish ekanligining guvohi bo'lish mumkin. Darslikdagi duch kelgan jumla test topshiriqlari tuzish uchun asos bo'lib xizmat qiladi, bunday test topshiriqlari maktab o'quvchisi egal-

(Davomi 3-betda.)



Adabiyot darsi — hayot darsi bo'lmog'i lozim

(Davomi. Boshi 1–2-betlarda.)

lashi kerak bo'lgan qanday kompetensiyani tekshirishiga e'tibor qaratilmaydi. "Kecha va kunduz"da aravakashning ismi kim edi?", "Shum bola"da bosh qahramon kimga qorxat yozadi?", "Kimni xotini moddiy qiyinchilik tufayli tashlab ketgan?", "Kimning onasi xor-zorlikda vafot etgan?" singari test topshiriqlari o'quvchida badiiy tafakkurning yuksalishiga xizmat qiladi, deb bo'lmaydi. **Maktab bitiruvchisi esa o'z vazifasini shunday ikir-chikirlarni yod olishda deb biladi va adabiyot uning uchun "darsliklardagi adiblar va asarlar haqidagi ma'lumotlarni yod olish" faniga aylanadi.** Bunday vaziyatni o'zgartirish uchun Davlat test markazi adabiyot fanidan test topshiriqlarini tuzishga yondashuvini tubdan qayta ko'rib chiqishi talab qilinadi.

Demak, adabiyot fanini o'qitish samarali bo'lishi uchun fanning maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda mos baholash usullari tanlanishi va ishlatilishi lozim.

Uchinchi omil. Ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan

omillardan yana biri o'quv materiallari va metodikadir. **O'quv materiallari va ularning zamiridagi metodika o'quvchilarni fanga qiziqitirish, o'quvchilarda fanning oldiga qo'yilgan vazifalarga erishishda yordam bermog'i lozim.** Maktab o'quvchisi uchun eng asosiy o'quv materiallari bo'lgan darslik shunchaki fanga oid ma'lumotlar yig'indisi emas, balki o'quvchi bilan interaktiv dialogga kirishib, unda kompetensiyalarini shakllantirishda yordam bera oladigan vositaga aylanishi talab qilinadi.

Darslik yozish o'ziga xos monopoliyaga aylangan, kimlar darslik mualliflari bo'lishi "yopiq eshiklar ortida", tushunarsiz mezonlar asosida hal qilinadigan, o'qituvchi o'z o'quvchilari uchun mos darslikni tanlash huquqidan hech bir sababsiz mahrum qilingan bir sharoitda sifatli darslik paydo bo'lishini kutish mantiqsizlikdir.

Adabiyot darsliklari har 4-5 yilda "yangilangani" bilan, bunday "yangilanish" asosan darslikka kiritilgan bir asarni boshqasiga almashtirish bilan cheklanadi, xolos. **XXI asr o'quvchisi uchun yozilayotgan adabiyot darsliklariga 1930-yillarda sobiq Sovet Ittifoqida yaratilgan andoza asos qilib olingan:** o'rganiladigan asar muallifi haqida ma'lumot (bu ma'lumot aksar hollarda o'rganiladigan asarni tushunishga yordam bermaydi, shunchaki adibning qayerlarda ishlagani va qanday kitoblarni yozganini quruq rasmiyatchilik bilan sanaladi) — asar yoki undan parcha — "asar haqida" bo'limi

(bu bo'limda darslik mualliflari asar sujetini qayta hikoya qilib berishadi va o'quvchi yod olishi kerak bo'lgan asarning "to'g'ri talqini"ni berishadi) — savol va topshiriqlar (bular esa asosan ma'lumotlarni eslab qolish va qaytarishga qaratiladi). Sobiq Ittifoqda adabiyot darsliklariga bunday tartib berilishidan asosiy maqsad — asarlarni hamma birday, "partiya belgilab ber-

asarda ishlatilgan badiiy vositalar tahlil qilinadi. O'qishdan keyingi topshiriqlar bosqichida esa asarni "yuqoridan", makro darajada tahlil qilishga qaratilgan topshiriqlar bajariladi. Misol uchun, o'rganilayotgan asar haqida adabiy tanqidchilarning bir-biriga qarama-qarshi fikrlari keltiriladi, o'quvchilardan qaysi fikrga va nima uchun qo'shilishlari so'ralishi mumkin. Yoki Makbetning fo-

asarni mustaqil tushunish va tahlil qilish kompetensiyalari shakllantiriladi.

Albatta, bunday metodika samarali bo'lishi uchun bir qancha talablar ham hisobga olinmog'i lozim:

— har bir sinfda **o'quvchining yoshi, dunyoqarashi, qiziqishiga mos asarlar** tanlanishi lozim — nazarimizda, adabiyot fani o'rganishning dastlabki bosqichlarida (5–7-sinflar) asarlar ko'proq o'quvchining qiziqishini hisobga olib emas, "bu adib haqida bilishi kerak" tamoyili asosida tanlangan;

— asarlarni **to'liq o'rganish va tahlil qilish uchun yetarlicha soatlar** ajratilishi lozim — hajman yirik asarlardan berilgan parchalar o'quvchilarda asar haqida mustaqil tasavvur shakllantirish imkonini bermaydi va o'quvchi "asar haqida" bo'limida berilgan fikrlarni yod olishga majbur bo'ladi, bunday muammoning yechimi esa har bir sinfda o'rganiladigan asarlar sonini kamaytirish hisobiga o'rganiladigan asarlar tahlili uchun yetarli soatlar ajratishdir (masalan, Angliya maktablarining yuqori sinflarida Shekspiring muayyan bir tragediyasini o'rganish uchun yoki Rossiya maktablarida Pushkinning "Yevgeniy Onegin" she'riy romanini tahlil qilish uchun bir chorak ajratiladi);

— **turli muammolar ko'tarilgan, turli madaniyat vakillari tomonidan yaratilgan va turfa dunyoqarashlar aks etgan asarlarga** ham dasturda keng o'rin ajratilishi lozim — bunday asarlar o'quvchi dunyoqarashini charxlaydi va mustaqil fikrlash kompetensiyasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi (amaldagi dasturlarda jahon adabiyotiga "bormi-bor" tamoyili asosida o'rin ajratilganligi sir emas);

— adabiyot dasturlariga **variativlik tamoyili** singdirilishi kerak — majburiy, o'qilishi shart ("kanon") asarlar bilan birga, o'qituvchi bevosita o'zi dars beradigan sinfning qiziqishlarini hisobga olgan holda tanlab olishi mumkin bo'lgan asarlar ro'yxati ham tavsiya qilinsa, bu adabiyot darslarining o'quvchilari uchun yanada qiziqarli bo'lishini ta'minlaydi (shuningdek, bu holat turli darslik mualliflari o'rtasida sog'lom raqobat shakllanishiga va pirovardida darsliklar sifatiga ijobiy ta'sirini o'tkazadi).

Biz mazkur maqolada kimnidur yoki nimanidur tanqid qilish yoki nishonga olishni emas, balki taraqqiyotning eng muhim halqalaridan biri bo'lgan adabiyot ta'limida mavjud muammolar va ularning yechimlarini ko'rsatishni maqsad qildik. Qayd etilgan fikrlar ayni damda milliy o'quv dasturini takomillashtirish jarayonlari uchun muhim va ahamiyatli bo'ladi, deb umid qilamiz.

Zulxumor MIRZAYEVA, filologiya fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazi direktori Komil JALILOV, London Universiteti Kolleji Ta'lim instituti magistri, TEAM Universiteti Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i



gan yo'nalish doirasida" tushunishiga erishish edi. Bunday metodika hozirgi zamon uchun to'g'ri kelmasligi, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalashga xizmat qilmasligi, o'quvchini badiiy asardan bezdirishi, o'quvchi "asar haqida" bo'limini yodlab olib, to'tiqushday qaytarishga moyil bo'lishi esa hech kimga qiziq emas.

Xorijiy davlatlarda ishlatiladigan adabiyot darsliklari tahlil qilinsa, ularda **asosiy maqsad savol va topshiriqlar, izohlar yordamida o'quvchida badiiy matnni mustaqil tahlil qila olish ko'nikmalarini shakllantirish** ekanligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Asar bilan ishlash odatda uch bosqichda tashkil qilinadi. Birinchi bosqichda (o'qishdan oldingi topshiriqlar) asarni tushunishga yordam beradigan bilimlar eslanadi yoki shakllantiriladi hamda asarni o'qishga ishtiyoq (motivatsiya) uyg'otiladi. Shuningdek, bu bosqichda odatda asar matnini diqqat bilan o'qishni talab qiladigan vazifa ham qo'yiladi. Masalan, Shekspiring "Makbet" asari o'rganiladigan bo'lsa, asar yozilgan davrda teatr spektakllarining o'ziga xosliklari, asarning yozilishiga turk bo'lgan omillar haqida ma'lumotlar keltiriladi va bu ma'lumotlar o'quvchilarni bevosita asar matnini sinchiklab o'qishga rag'batlantirish uchun esa asar qahramonlarini xarakterlovchi eng muhim gaplarni jadval shaklida yozib borish vazifa qilib qo'yilishi mumkin (bunday topshiriq samarali bo'lishi uchun, asarni o'qib bo'lgandan unga qaytish va tahlil qilish maqsadga muvofiq). Keyingi bosqichda (o'qish davomidagi topshiriqlar) bevosita asar matni bilan ishlanadi: asar sujeti, tili, uslubi, qahramonning xatti-harakatlari va motivlari,

jiyasiga sabab bo'lgan omillar, bunda alvastilar bashorati va Makbet xonim ambitsiyalari ta'siri tahlil qilinishi mumkin. Shuningdek, bu bosqichda o'quvchilar asar asosida yangi narsa yaratishlari, masalan, insho yoki taqriz yozishlari, asarning davomini yoki boshqa jandagi talqinini yaratib ko'rishlari mumkin.

Darsliklarda o'quvchini badiiy asar olamiga olib kirish, asarni mustaqil tahlil qilish ko'nikmasini shakllantirishning bunday usuli bejiz tanlanmagan. Aksar xorijiy davlatlar maktab pedagogikasi uchun konstruktivizm va ijtimoiy konstruktivizm nazariyalari asos qilib olingan va muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. **Ushbu nazariyalarning zamirida "o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qilishi kerak emas, balki o'rganish jarayonida tengdoshlari bilan muloqot orqali bilimni o'zi yaratishi kerak" degan g'oya yotadi.** Ya'ni o'qituvchining vazifasi transmissiya (tayyor bilimni o'quvchiga yetkazish) emas, balki o'quvchilarni "kashfiyot" qilishlari uchun shart-sharoit yaratishda ko'riladi.

Bevosita adabiyot fanini o'qitish metodikasi esa asosan retseptiv estetika nazariyasi asosida quriladi. **Ushbu nazariyaga ko'ra, kitobxon mutolaa jarayonining faol ishtirokchisi bo'lib, matn bilan ishlash jarayonida ma'no yaratadi.** Ya'ni kitobxon shaxsiyati, hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, miyati o'qish paytidagi emotsional holatidan kelib chiqqan holda, badiiy matnning turli talqinlari yuzaga kelishi mumkin. Adabiyot o'qituvchisining vazifasi o'quvchi-kitobxon asarning o'z talqinini yaratishiga yordam berishdan iboratdir. Demak, o'quvchiga kimningdir (darslik muallifining, adabiy tanqidchining, adabiyot o'qituvchisining) asar haqidagi fikri majburan "tiqishtirilmaydi", balki

Mulohaza

O'tni alanga oldirsin kosovlar

Julqunboy 1923-yili "Olti yillik bazm" asarida safdoshlariga hazil yozar ekan, Avloniy haqida shunday deydi: "Bir mahal garmsel tegib kutilmagan joyda qora kosov bo'lib qoldi, hozirda o'choq kovlashdan boshqasiga yaramaydi".

Avloniyga nisbatan aytilgan bu achchiq kinoya zami-rida yashiringan haqiqatni tushunib yetish uchun katta salohiyat egasi bo'lish talab etiladi. Chunki ular yashagan davr erkin, ijodkor ilm sohibini "qora kosov" bo'lishga majbur etardi. Shunday og'ir vaziyatda ham yosh avlodning ilmi bo'lishiga harakat qilgan bobomizning mehnati tahsinga sazovordir. Garchi kosov bo'lmasa, o't alanga olmaydi. O'qituvchi oldiga qo'yilgan bugungi kun talabi ijod sohibi bo'lmoq va shu xislatga ega bo'lgan barkamol avlodni kamol toptirishdir. Ayniqsa, bu

vazifaning aksariyat qismi ona tili va adabiyot o'qituvchisi zimmasiga yuklanadi. Bu fan o'qituvchilari o'quvchilarni ona tilimizga hurmat ruhi-da tarbiyalashni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yishadi. Xo'sh, shu maqsadga erisha olyapmizmi?

Hozirgi kunda xorijiy atamalar kundalik hayotimizga ko'plab kirib kelmoqda. Ona tilimiz fidoyilari tomonidan bu hol ommaviy axborot vositalarida ko'p marotaba tanqid qilinsa-da, natijasi ko'rinnmayapti. Buning asosiy sababi sifatida yoshlarimizning saviyasi ro'kach qilib ko'rsa-

tilmoqda. Aslida shu yoshlarni biz, katta avlod tarbiya etmayapmizmi? Ona tilimizga oid so'zlar ma'nosini biz yosh avlodga yetkazib bera olmayotganimiz rost emasmi? Ona tili fanimizda mavzular, ularda o'rgatilyotgan tushunchalarning barchasi o'quvchilarning kelajakdagi hayotida qanchalik o'rin tutishi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning eng sevimli fani ona tili va o'qish bo'ladi. Sababi, o'qituvchi o'quvchilarni imlo savodi, husnixati, ifodali o'qishga qarab baholaydi. Insonning hayotida ifodali o'qiy olish, husnixat juda muhim sanaladi. Yuqori sinfga ko'tarilgan sari ona tili fanida mavzular ichida "ishlamaydigan"(kundalik hayotda umuman qo'llanmaydigan)lari ham o'rin ola boshlaydi. Natijada sanoqli o'quvchigina bu fanga qiziqish bildiradi.

Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida o'tkazilgan test sinovlari natijasiga ko'ra ona tili va adabiyot fani o'qituvchilarning 60 foizdan ortig'i past natija ko'rsatganligi haqida ma'lumotga egamiz. Bu bilan fan o'qituvchilari savodsiz degan fikrdan yiroq bo'lish kerak. U o'qituvchilar o'z darslarida o'quvchilarning kreativligini oshirishga va shu fan bo'yicha kompetensiya shakllantirishga ko'proq e'tibor qaratib, "ishlamaydigan" mavzularga vaqt ajrata olmaganlar, xolos. Biz ona tili o'qituvchilari o'quvchilarni fanimizni o'zlashtira olmayotganligidan shikoyat qilar ekanmiz, ota-onalar va hamkasblarimiz tomonidan qattiq tanqidga uchraymiz. Ular bizning fanimizning qoidalari, bo'laklarga bo'lingan so'zlar, urg'u, so'zlarning bog'lanishi-yu va yana bir qancha tushunchalar kundalik hayotimizda

hech qachon kerak bo'lmasligini ta'kidlashadi. Bu esa biz filologlarning obro'siga putur yetkazadi.

Bu ona tili fani kerak emas degani emas, balki unda o'rganilayotgan bilimlarning asosiyini ajratish kerak bo'ladi, xolos. Haqiqatan ham imlo, grafika, punktuatsiya, morfologiya, etimologiya, uslubiyat, leksikologiya ko'nikmalarini o'quvchilar ongiga singdirmog'imiz darkor. So'zlarning lug'aviy ma'nosini o'rganishda boshqa til bo'limlarining xizmati katta, albatta.

Ona tiliga ham fan sifatida, ham san'at — ijodkorlikni shakllantiruvchi hodisot, vosita sifatida qaramog'imiz kerak. 8-, 9-, 10-, 11-sinlar uchun yaratilgan yangi darsliklarni yanada boyitishimiz lozim. Ona tiliga hurmat ruhi shakllangan qalbda o'z millatiga, vataniga, urf-odatiga, an'analarga hurmat, sadoqat tuyg'usi bo'ladi.

Sarvara ESHONXONOVA,
Kasbi tumanidagi
9-maktabning
ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

O'qituvchiga yordam

Jomiyda 4 ta, Navoiyda 7 ta

O'zbek mumtoz adabiyoti asosini aruz vaznidagi asarlar tashkil etadi. Aruz vazni arab, fors-tojik tilidagi she'riyat, shuningdek, o'zbek, ozarboyjon, turk va boshqa turkiy xalqlar she'riyatida ham muhim taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi. Aruz nazariyasi haqida Abdurahmon Jomiyning "Risolayi aruz" hamda Alisher Navoiyning "Mezon ul-avzon" asarlari alohida ahamiyatga ega.



Ushbu ikki asar aruz ilmi, unda qo'llaniladigan bahr va vaznlari haqida muhim ma'lumot beradi. Har ikki asar ham deyarli bir davrda yaratilgan bo'lsa-da, bir-birini takrorlamaydi. To'g'ri, har ikki ijodkorda ham umumiy, mushtarak fikrlar mavjud, lekin ularning asarlarini diqqat bilan kuzatar ekanmiz, muayyan farqli jihatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Ma'lumki, aruzdagi eng kichik birlik juzv bo'lib, u ikki asarda ham "rukn" istilohi bilan beriladi.

Aruz doiralari deganda, juzvlar va

ulardagi qisqa va cho'ziq hijolar sonining tengligiga ko'ra bir-biriga yaqin bo'lgan bahrlar guruhi tushuniladi. Umuman, ushbu doira, ya'ni aruzshunoslikdagi doiralarni aruz ilmi asoschisi Xalil ibn Ahmad kashf qilgan. Bunda bir-biriga yaqin bo'lgan bahrlar bitta doirani tashkil qilgan. Aruzdagi bahrlarni biror doiraga jamlashdan maqsad shuki, unda bahrlar orasidagi farq va umumiylikka asoslaniladi va shu bilan bir qatorda, ularni o'zlashtirish, she'r vaznlarini o'rganish birmuncha oson kechadi.

Jomiy hamda Navoiyning aruz ilmi doiralari haqidagi ma'lumotlarida bir qadar farqli jihatlar mavjud ekanini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, doiralari sonini ko'rsatishda ham farq mavjud. Abdurahmon Jomiy "Risolayi aruz" asarida aruzdagi doiralari sonini 4 ta deb beradi. Alisher Navoiy ham "Mezon ul-avzon" asarida Jomiy kabi aruz doiralari keltirib o'tar ekan, unda biz Jomiy ma'lumotlaridan farqli va to'liqroq ma'lumotlarni ko'rishimiz mumkin. Abdurahmon Jomiy, yuqorida aytib o'tilganidek, o'z asarida aruzning 4 ta doirasini keltirib, ular qaysi bahrlarni o'z ichiga olganligini keltirib o'tadi. Alisher Navoiy esa, Jomiydan farqli ravishda, aruzning 7 ta doirasini ko'rsatadi. Aytish mumkinki, Navoiy tomonidan keltirilgan beshinchi doira u tomonidan qilingan kashfiyotdir. Ya'ni, unga ko'ra, bu doira "Doirayi mujtamiya" deb atalib, Navoiy unga barcha to'qqizta bahrning solimlarini, ya'ni zihofga-o'zgarishga uchramagan rukslarini jamlaydi va ularni bir doira sifatida belgilaydi. Oltinchi doiraga esa Navoiy komil va vofir bahrlarini kiritadi va shu o'rinda muallif ushbu bahrlar yoqimli bahrlar ekanini, lekin negadir kam she'r yozilganini aytib o'tadi.

Navoiy yettinchi doiraga arab adabiyotiga xos bo'lgan va ajam she'riyatida uchramaydigan bahrlarni jamlaydi. Ya'ni ular tavil, madid va basit bahrlaridir.

Mango bir nafas sensiz qaror-u tahammul yo'q

Agar misra shu tarzda o'qilsa, faulun mafoiyulun faulun mafoiyulun rukslarining takroridan hosil bo'luvchi tavil bahri;

"Bir nafas sensiz qaror-u tahammul yo'q mango" ko'rinishida o'qilganda, foiluton foilun foiluton foilun rukslarining takroridan hosil bo'ladigan madid bahri;

"Sensiz qaror-u tahammul yo'q mango" bir nafas shaklida o'qilganda esa mustaf'ilun foilun mustaf'ilun foilun rukslarini takroriga asoslangan basit bahri vazni hosil bo'ladi.

Jomiy asarida aruz bahrlarining umumiy soni 14 ta deb keltirilsa, Navoiy asarida bahrlar soni 19 ta deb beriladi. Ya'ni bu o'rinda ham Jomiy faqatgina fors-tojik adabiyotida keng qo'llanilgan bahrlarga to'xtalib o'tganini ko'rishimiz mumkin. Navoiy esa Jomiy keltirib o'tgan bahrlardan tashqari yana besh ta bahr: komil, vofir, tavil, madid, basit bahrlarini ham keltirib, jami 19 ta bahr mavjud ekanligini aytadi.

Abdurahmon Jomiyning aruz ilmi-ga doir "Risolayi aruz" asarida, asosan, forsiy aruzga oid eng muhim masalalar qalamga olingan. Navoiy aruz qoidalarini umumiy holatdagina berib qolmasdan, o'zidan avvalgi salafllari asarlarini ham ko'rib chiqib, ularda mavjud bo'lmagan ba'zi doira va vaznlarni ham keltirib o'tadi. Shu tariqa u aruz nazariyasi qonun-qoidalarini haqida imkon qadar to'liq va batafsil ma'lumot beradi.

Har ikki asarda ham dastlab aruzdagi eng kichik birlik juzvlariga ta'rif berib o'tiladi. Har ikki ijodkorning juzvlar haqida bergan ma'lumotlari bir xil.

Demak, ikki asar ham o'z davri uchun muhim va ahamiyatli bo'lgan. Ikki asarda ham umumiy, ham xususiy jihatlar ko'p. Keltirilgan ma'lumotlar esa bu boradagi ishlar uchun kirish qism vazifasini o'taydi.

Umida PARPIYEVA,
Shayxontohur tumanidagi
45-maktab o'qituvchisi

Billur ko'zgular toptalgan nashr

Alisher Navoiyning "To'la asarlar to'plami" 6-jildidagi "Hayrat ul-abror" dostoni matn saviyasi haqidagi maqolani aslida asar nashridagi ikki baytni tug'ro-epigraf qilib boshlasak to'g'riroq bo'lardi:

*Qolmadi chun o'zga manga chopae,
Qal'a yasardek toribon xopae (55-bet).*

*Esti nasimi bu guliston sari,
Sunbulu sarvu gulu payhon sari (61-bet).*

Nashrga tayyorlovchi Ibrohim Haqqul (filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekistonda hozir eng yetakchi navoiyshunos) birinchi baytning uchta so'zini o'z tahririda o'zgartirgan: "chora"ni "chopa", "topibon"ni "toribon", "xorae" so'zini "xopae" holiga keltirgan. Biroq nima uchun shunday ulug' zotning bunday qilganliklari bizga qorong'i.

Bu kitobning mas'ul muharriri Sayfiddin Rafiddinov (hozir bu kishi "Alisher Navoiy ensiklopediyasi" tuzuvchilarining bosh rahbari)ning ham nega bunday o'zgartirish qilganliklaridan xabardor emasmiz.

Bir narsani bilamizki, bu ikki taniqli olimimiz matnda bosilgan "xopae, toribon va chopae" so'zlarining ma'nosi, lug'atini aytib berolmaydilar. Bu fikrga kamina lug'atshunos sifatida kafildir.

Ikkinchi baytdagi "payhon" so'zini ham bu ikki donishmandimiz bilmaydi. Mabodo so'rasag-u, ular "payhon"ni "payxon" deb "tuzatsa"lar biz bu **ikki olimning ushbu doston nashridagi asl maqsadlarini bilib olamiz xolos**. Darhaqiqat, ularning o'zga olimning nusxasini o'z nomlariga o'tkazib olib, Navoiy gulshanini payxon qilganliklari rost.

Chunki biz **yuqoridagi kabi yaroqsiz baytlardan doston bo'ylab yigirma sahifa (!!!) yig'dik**.

Ushbu satrlar muallifidan ham nashrdagi birinchi bayt mazmuni so'ralsa, miq etolmayman. Men faqat bu baytning "Hayrat ul-abror" dostonining ustoz Porso Shamsiyev tuzgan ilmiy-tanqidiy matnidani aslini keltirib:

*Qolmadi chun o'zga manga chorae,
Qal'a yasardek topibon xorae (1970, 37-bet)*

baytning zohiriy mazmunini aytib berishim mumkin, xolos.

Menda hech bir o'zga chora qolmagach, o'zimga qal'a yasashga yaraydigan ulkan xarsangtosh topib...

Ikkinchi baytning ilmiy-tanqidiy matndagi holati quyidagicha:

*Esti nasimi bu guliston sori,
Sunbulu sarvu gulu rayhon sori (42-bet).*

Bu baytni izohlashga hojat bo'lmas kerak. Birgina "nasim"ning shabada ekanligini aytisak, zukko ziyolilar bayt mazmunini darhol anglay biladilar.

"Hayrat ul-abror" dostoniga nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir shunchalik "ajabto'vor yangi so'zlar" kiritganlarki, o'sha so'zlar lug'atini eng mashhur jahon turkshunoslari(turkologlari)dan so'ralsa ham, ular bu ikki o'zbek olimi oldida boshlarini quyi soladilar xolos. Ya'ni, bilolmaydilar.

Mantiq yo'q so'zlarga lug'at berishni man etadi. Jahon olimlari mantiqqa amal qilib ilm bilan shug'ullanadilar.

O'z vaqtda daho shoirimiz matni buzuvchi kitobning boshini urib yorib, yurtdan badarg'a qilish kerak, deganlar. Navoiy *bir nusxani buzgan kitobni shunday jazolamoqchi ekan, uch ming nusxani buzgan olimlarni nima qilmoq kerak?*

Tubanda asliyatga qiyoslab yana bir necha bayt tahlili bilan shug'ullanib ko'raylik-chi, navoiyshunos nashrga tayyorlovchi va mas'ul muharrir qanday kashfiyotlar qilgan ekanlar?

Quyidagi baytda "xatar" so'zi "ko'r" deb qayd etilmoqda:

*Vodiyi hajr ichra solib ko'r xatar,
Xoru giyohini qilib nishtar (12-bet).*

Navbatdagi baytda yog'indan tort yasalgan:

*Torti yog'in rishatasi chun bahri sof
Yel iligin qilding anga hullabof. (15-bet).*



Birinchi baytdagi "ko'r" so'zi o'rinda asarning ilmiy-tanqidiy matnida "ko'p" so'zi bor. Ikkinchi baytdagi "torti" so'zi o'rinda "topti" so'zi keltirilgan. Xatar ko'r emas ekan. "Yog'in" oldida "tort" emas, balki "topti" so'zi turgan ekan.

Xo'sh, nashrdagi vaysashlar Navoiyga xosmi yo noshirlargami? Navoiyshunoslarga tegishlimi? Noshir Ibrohim Haqqul va mas'ul muharrir Sayfiddin Rafiddinovga ishonisak qush ko'r bo'lar ekan:

*Qush ko'r o'lur bog' harimig'a xos,
Bulbul ila gulga bo'lur ixtisos (44-bet).*

O'q va tosh ham ko'r ekan:

*Tegmak uchun jismu uchurmoqqa bosh,
Anda qilib ta'biya ko'r o'q-u tosh (55-bet).*

Arbada (janjal, to'polon) ham ko'r bo'lgan ekan:

*Arbada ko'r bo'ldi, magar mast men,
Yoki junun qaydig'a pobast men? (56-bet)*

Bayt mazmuni:
Shovqin-suron (to'polon) ko'r bo'ldi, men mast-manmi?

Yo telbalik asoratida oyog'im bog'liqmi?
Hazrat Navoiy bu baytni o'qiganlarida nashrga tayyorlovchilar samimiyatiga, ularning iqror va e'tiroflariga balki qoyil qolarmidilar.

Biroq muallif hazratimiz "yorqon" degan so'zni tushunolmay, xunob bo'lib, kotiblarni tayoqlatarmidilar... desak, arab yozuvida bu so'z sahih edi-da. Nashr holati:

*Nayzasidur charxda ermas shihob,
Qavs kibi yorqon anga siymi nob (57-bet).*

Asarning ilmiy matndagi yozuvi:

*Nayzasidur, charxda ermas shihob,
Qavs kibi yopqon anga siymi nob (39-bet).*

Alisher Navoiy oltin yil yashab "rechon" degan so'zni eshitmaganlar va "Hayrat ul-abror"da bu so'zni yozmaganlar. Navoiy "To'la asarlar to'plami" oltinchi jildining 67-betida shu so'z qatnashgan:

*Sunbuli rechon bo'lub af'i misol,
G'uncha aning nishidin ozurda hol.*

Bu so'zni jahondagi biror tilshunos va adabiyotshunos olim ham eshitmagan va bilmaydi. "Rechon" shaytandan kelgan "vahiy"mikan? Nega navoiyshunoslarimiz bu so'zni yozdilar ekan?

Qiziq-da, noshirlarimiz faoliyatida ikki nuqtada mantiq yo'q:

Birinchisi, bu nashr boshqa olim bir yil rioyozat qilib arab yozuvidan ko'chirib 2006, 2009-yilda nashr ettirgan nusxadan (kompyuterdan) shundoqqina olinib tayyorlangan. U nashrlarda bu so'z yo'q.

Ikkinchisi, "Hayrat ul-abror"ning ilmiy matnida ham bu so'z mavjud emas. Mana, Navoiy asliyat:

*Sunbuli pechon bo'lub af'i misol,
G'uncha aning nishidir ozurdahol (46-bet).*

"Rechon" so'zining "pechon" ekanligini kitobxon Aflotun bo'lsa ham bilolmaydi-da, axir... Agar

**Chun buvad dar shahri
ko'ron zeri po oinaho**

*Epigraf tarjimasi: So'qirlar shahrida
ko'zgular oyoqosti qilmadi, toptaladi.*

"pechon" bo'lsa edi, o'quvchi lug'atdan bu so'zning "chirmashiq, chirmashgan, buram-buram" degan ma'nolarini bilib olgan bo'lar edi-ya...

"Shaporat" nima degani? – deya biror zukko hazil-kash televideniye'ga zakovatchilarga savol bilan baytni jo'natsa bormi? Naq o'tta zakovatlilar jamoasi ham buni topolmay terlagan bo'lar edilar:

*Sifla nishonisi shaporat durur,
Shu lag'a bittab' harorat durur (206-bet).*

Chunki bu so'z nafaqat o'zbek tilida, jahonning birtorta tilida ham yo'qda.

Yengilgan zakovatilardan olimnusxasi bo'lsa, lug'atdan topolmagach, navoiyshunoslardan iltimos qiladi. Navoiyshunos Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" ilmiy-tanqidiy matn (O'zFan, 1970) degan kitobidan shu baytni hijjalab ko'chirib beradi:

*Sifla nishonisi sharorat durur,
Shu lag'a bittab' harorat durur (139-bet).*

"Sharorat" so'zining lug'ati: yomonlik, yovuzlikdir. Biz bu so'z lug'atini bejiz keltirmadik. Chunki daho Alisher Navoiy dostoni matnini bunday ayovsiz buzishlarni yomonlik desa ham bo'ladi, yovuzlik desa ham joiz bo'lsa kerak...

Chunki bunday yo'q so'zlarni kiritish oqibatida dostonidagi 500 baytdan ortiq matn ma'nosizlantirilgan. Navoiyona billur misralar tepkilanib chil-chil qilinib, loyu tuproqqa qorilgan...

Ana shunday saviyadagi kitob 2011-yilgi Xalqaro anjumanda jahon olimlariga qutlug' tuhfa sifatida tarqatilgan...

Chunki nashrga tayyorlovchi Ibrohim Haqqul va mas'ul muharrir Sayfiddin Rafiddinov jahon olimlarini o'zlariga kabi nashr ettirgan kitoblarni o'qimaydilar degan ishonchda bunday ishni qilishgan. Bizning aybimiz esa nashrni asarning ilmiy matniga qiyoslab asliyat haqiqiyni yuzaga chiqarishdir.

Endi taniqli navoiyshunoslarimizning Alisher Navoiy "To'la asarlar to'plami" 6-jildidagi "Hayrat ul-abror" dostoniga qilgan "xizmatlar"ini baholash va hukm chiqarishni hazratning o'zlariga havola qilamiz va hukmlarini tinglaymiz:

G'ALAT BITIB KOTIB BOBIDA QALAM SURMAG-U QORASINING G'ALATIN YUZIGA KELTURMAK

Falon kotib ar xatni mundaq yozar,
Bu mansabdin ani ko'parmoq kerak.
Yuzin nomasidek qaro aylabon,
Qalamdek boshin dag'i yormoq kerak.
Qarodin qarog'a beribon uluq,
Qalamravdin ani chiqarmoq kerak.
("G'aroyib us-sig'ar" devonidan).

DARSLIK o'quvchi yoshiga mos bo'lsa...

Adabiyot ta'limi hamma davrlarda pedagogikaning asosi sifatida o'quvchining ta'lim bilan birga tarbiyasini shakllantirishda muhim vosita bo'lib kelgan. Shuning uchun ham o'rta maktablarning 5–11-sinflarida adabiyot ilmiga alohida e'tibor qaratilgan. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida adabiyotni o'qitishdan ko'zlangan maqsad shundaki, birinchidan, bilim olish ko'zda tutilgan bo'lsa, ikkinchidan, o'quvchilarning o'zaro munosabatga kirishishini shakllantirish.

Agar adabiyot muallimi bu jihatlarni namunali tarzda rivojlantira olsa, keyingi jihatlarining paydo bo'lishiga turki bo'ladi. Ular aksiologik, gedonistik, tarbiyaviy omillardir. Demak, mazkur omillar umumta'lim maktablarida adabiyot fanini o'qitishda pedagog uchun qo'llanma vazifasini o'tashi, ular izchillik bilan saboq jarayonida shakllantirib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Buning uchun, avvalo, darslikdagi mavzularning ko'lami, davrlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilligida adabiyot darsliklaridagi o'rganilish obyektlari bir qadar ko'p, o'rganilish uchun nazarda tutilgan ma'lumotlar keng qamrovli ekanini hisobga olgan holda adabiyot tarixi, adabiyotning siyosiy ijtimoiy hayotdagi o'rni, uning inson ma'naviy kamoloti va atrof-muhitga ruhiy ta'siri singari keng ko'lamli mavzular bir qadar boshqa fanlar tarkibiga kiritildi. Jumladan, adabiyot tarixi va uning o'zi shakllangan ijtimoiy va siyosiy jarayondagi o'rni ko'lamidagi mavzular tarix fani tarkibiga, adabiyotning ijtimoiy, inson ruhiy kamolotidagi o'rni, adabiyot yaratilishining milliy va umuminsoniy jihatlarini o'zida aks ettiruvchi mavzular "Milliy istiqlol g'oyasi", "Vatan tuyg'usi", tarbiyaviy soatlar tarkibiga kiritildi. O'quvchilarni mustaqil izlanishga undash maqsadida o'lkashunoslik mashg'ulotlari fan to'garaklari hamda fakultativlar tarkibiga o'tdi.

5–11-sinf darsliklaridagi mavzular ko'lamiga e'tibor bersak, darslikning mazmuniy tuzilishi shunday.

Birinchi, xalq og'zaki ijodining o'qitilishi, ikkinchi, mumtoz adabiyot, milliy uyg'onish davri adabiyoti, XX asr adabiyoti, jahon adabiyoti va umumiy mavzu ichida nazariy ma'lumotlarga to'xtalib o'tilgan. Mazkur bosh mavzularni o'qitishda nimalarga e'tibor qaratiladi?

O'rta maktablarning 5–11-sinflarida dastlab o'rganiladigan mavzu xalq og'zaki ijodi. Bunda kichik janrdagi asarlardan yirik hajmdagi asarlargacha bosqichma-bosqich o'rganib borish nazarda tutilgan bo'lib, 5-6-sinfda ertak, maqol, topshimoq, matal, latifa janrlaridagi asarlar o'rganilsa, 7-sinf-dan boshlab doston janrini o'rganish, bunda voqean sodda asardan mazmuni keng qamrovli dostonlarni izchillik bilan o'rganish, u orqali asar yaratilgan zamon va makon qonuniyatlarini hamda asardagi g'oyani bugungi kun bilan bog'lash jihatlarini o'rganish ko'zda tutilgan.

O'quvchilarning tushunishini hisobga olgan holda antik adabiyot vakili Ezop va uning masallariga ham mavzu ajratilgan.

Mumtoz adabiyot vakillari Yasaviy, Navoiy, Lutfiy, Bobur, Atoiy ijodi, o'rta asrlar turkiy adabiyot vakillari Mashrab, Furqat, Ogahiy, Nodira, Uvaysiy asarlari, Muqimiy lirikasiorqali adabiyotning klassiko'rinishi va uning milliy tafakkurdagi o'rni, uning o'n asrlik oraliqdagi ham shakllan, ham mazmunan shakllanishi haqida o'quvchilarga ma'lumot yetkazish bilan birga adab berish funksiyasi yuzaga chiqadi.

Milliy uyg'onish va jadid adabiyoti vakillari orqali ta'lim, maktab va erk haqidagi qarashlarni o'quvchilarning ongiga singdirib borish, o'tgan asr odamlarining tafakkuri bilan bugungi kun qarashlarini solishtirish imkoniyati beriladi. Shu bilan birga shukronalik, qadrlash va anglash layoqatini shakllantirish nazarda tutilgan.

Mustaqillikkacha va mustaqillik davridagi o'zbek adabiyotidagi yangilangan shakl, yangilangan mazmun va tafakkur o'quvchilarga begona emas. O'quvchilar o'zi mansub bo'lgan jamiyat va odamlarga munosabat bildirishi osonroq kechadi va ular atrofidagi insonlar qilmishini asardagi qahramonlar kechmishidan kelib chiqib baholaydilar, munosabat bildiradilar va tushuntira oladilar.

Adabiyot ilmining yana bir tomoni sanalgan chet el adabiyoti vakillarining hayoti va ijodini o'rganish, ular tomonidan yaratilgan asarlarining inson badiiy tafakkuriga ta'sirini o'rganish har bir sinf adabiyot darsligida alohida o'rin tutadi. 5-sinf dasturida Xens Kristian Andersen, Antuan de Sent Ekzyuperi, Ezop va Nodar Dumbadze asarlari, 6-7-sinflarda Janni Rodari, Musa Jalil asarlari jamlangan. 8–11-sinflarda o'quvchilarning yoshi, dunyoqarashi va fikrlashi nuqtayi nazaridan kelib chiqib ijodkorlarning asarlari tanlangan bo'lib, bu asarlar o'rgatilishidan o'quvchi o'zbek va jahon adabiyoti degan tushunchani anglashi, jahon tafakkuri, ya'ni umuminsoniy tafakkur bilan milliy tafakkur haqida mufassal tushunchaga ega bo'lishi, obrazlarni o'rganish orqali muqoyasa qilishi shakllantirishi maqsadi ko'zda tutilgan. Bu esa o'quvchining yurt atalmish qo'rg'onning ichidagi manbalar bilan kifoyalanmay, milliylikning o'zi bilan yashamay, umuminsoniyatga daxldor



g'oyalarni o'rganishi va ulardan kelib chiqib o'ziga munosib yo'l va ideal tanlashi imkonini beradi.

Har bir bo'lim o'quvchining mustaqil fikrlashi, anglash va anglati olish malakasini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Adabiyotshunoslikning yirik turi sanalgan nazariy ma'lumotlarning o'rta maktab o'quvchilariga o'rgatilishi so'zning qudrati va imkoniyatlari ko'rsatilishi jihatidan alohida o'rin tutadi. Maktab dasturida 5-sinflarda hikoya janri, she'r haqida tushuncha, 6–8-sinflarda ham qissa, ham hikoya janri, she'riy san'at, aruz vazni va dramatik janrlar haqidagi tushunchalar va 9–11-sinfda faqat roman janriga oid asarlarga alohida soatlar ajratilmagan bo'lsa-da, takrorlash, mustahkamlash darslarida, mustaqil o'qish va badiiy tahlil kechimlari va fakultativlarda o'quvchilarga ma'lumotlarni yetkazish muhim. Shuning uchun ham o'qituvchi o'ziga aniq bir maqsadni belgilab olishi lozim bo'ladi. Bizningcha, bunday saboqlarning maqsadi, o'quvchilarga milliy adabiyotimiz va uning o'ziga xos jihatlarini anglatish asosida milliy o'zlik va milliy qadriyatlarga hurmatni anglatish, so'zga muhabbatni shakllantirish, 5–11-sinflar uchun badiiy asardan kelib chiqib, nazariy ma'lumotlarni anglatish va yodda saqlab qolish, yozuvchi tarjimai holi bilan ishlashga o'rgatish layoqatini shakllantirish, bunday ma'lumotlarni o'rganishdagi o'ziga xos jihatlarini tushuntirish va uni badiiy asar misolida o'rganishga rag'batlantirish, o'smirlarga o'zlarining va o'zgalarning tuyg'ulariga odilona munosabat bildirish va mustaqil fikrini bayon eta olishlariga ko'maklashishdan iborat.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin, o'rta maktablarda adabiyot ilmini o'rganishda, avvalo, darsliklarning tuzilishi muhim ahamiyatga ega. Darsliklar o'quvchi yoshiga mos bo'lishi, o'quvchilarning ruhiy-hissiy qarashlarini inobatga olgan holda o'rganish uchun obyekt tanlanishi muhim sanaladi. Bundan tashqari, badiiy asarni tahlil qilish yo'nalishida nazariy ma'lumotlarning kiritilishi adabiyot bu o'quvchiga odob-axloqni o'rgatuvchi vosita sifatidagi qarashni yo'qqa chiqarib, adabiy asar so'f badiiy-estetik hodisa ekanligini yanada oydinlashtiradi.

Xurshida NISHONOVA,
Shohida NISHONOVA,
Namangan shahridagi
43-maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchilari

*Men og'zimga tolqon solganman,
Tishlarimni bosganman tishga.
Odamovi nomin olganman,
Har kun borib kelaman ishga.*

*Do'stlarim-la gaplashgim kelar,
Gung emasman barisi yolg'on.
Og'iz ochsam yerga to'kilar
Yarimta so'z, bir hovuch tolqon.*

So'z mas'uliyati

Har qanday badiiy hodisa insonni mu-shohadaga chorlashi bilan qimmatli. Jurnalist Muhammad Ali Ahmadning "Turg'unlik yillari she'ri" tafakkurimda bedorlik, shuurimda tuman mushohadalar paydo etdi.

Ko'ngildan o'tgani Ollohga ayon. Shoirning ko'ngil mulki bo'lgan bu bitik 1994-yil 5-dekabr sanasida bitilgan. Ushbu she'r falsafiy mushohadaning mahsuli. Lirik qahramon ma'rifatli kishi. Ma'rifatli odam ehtiyotkor bo'ladi. Chunki u doimo idrok qilib, mushohada yuritib yashaydi. Orif nechog'li mushohadaga berilsa, jarayondagi o'zgarishlarning ildizi teranlashaveradi. U jamiyatdagi voqea-hodisalar ildizini nozik ilg'aydi, "kosa tagidagi nimkosalar"ni payqaydi. Uning qalbida armonlari qat-qat. Shuning uchun ham u "og'ziga tolqon solish"ga mahkum. Tishni-tishiga bosish sukunatning ifodasi. Sukunat so'nggi chora. Bunday kezlarda buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy e'tiroficha "jim turmak oltun". Davr... qahramon isyonning kushandasi. Isyonni sukunat mahf etdi. Chunki lirik qahramon orif kishi. U og'ziga tolqon solishni afzal biladi. Chunki turg'unlik davrida har qanday haq so'zni aytish imkonini yo'q edi-da!

El-u xalqqa aralashmaydigan, o'zini odamlardan chetga olib yuradigan kishilarni odamovi deymiz. Shoir ruhiy-ma'naviy tazyiqlarni yengish yo'li odamovilikda deb biladi. U el-u xalqdan emas, o'zidan norozi. Inson xohish-istaklarining chegarasi yo'q. Cheksiz xohish-istaklar ba'zan insonni mahv etadi. Xohish-istaklar insonning ehtiyojlari... Ehtiyojlar — ehtiyotkorlikni talab etadi. Ehtiyotkor odam — ortiqcha muammolarga duch kelmaydi.

"Do'stlarim-la gaplashgim kelar" iqrori odamovining shamoyilini o'zgartirishga urinish emas, aksincha o'zligiga qaytishi. Sukunatni isyon mahv etadi.

"Gung emasman barisi yolg'on" satridagi "n" tovushi so'zlar keskinligini ta'minlagan, so'zlararo shiddatni oshirgan. Satrni ikki qismga ajratsak, mohiyat yanada oydinlashadi. So'zlardagi zarb, shiddat, keskinlik yanada yaqqol namoyon bo'ladi: gung emasman barisi yolg'on... Yolg'on so'zi keyingi misraga zamin hozirlayapti:

*Og'iz ochsam yerga to'kilar
Yarimta so'z, bir hovuch tolqon.*

Qofiya — ijodkorning mahorat belgisi. Ma'no jihatdan bir-biriga zid bo'lgan yolg'on—tolqon so'zlari she'riy nutq talablari darajasida tabiiy. Tolqon quritilgan nandan tayyorlanadigan yemak. Shoir so'zni isrof, nonni uvul qilgisi kelmaydi. Soz ma'suliyati oldidagi qo'rquv—ulug' tuyg'u.

Ravshanbek EGAMBERDIYEV,
Boyovut tumanagi
22-maktabning ona tili va adabiyot
fani o'qituvchisi

Otello va Hamlet bir xil obraz...mi?!

(Amaldagi 9-sinf "Adabiyot" darsligi yuzasidan ba'zi mulohazalar)

2019-yili umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun nashr etilgan "Adabiyot" darsligida bir qancha yutuqli jihatlar bor. Jumladan, "Imom al-Buxoriy hayoti va ijodi", "Hadislar" mavzularining 5-sinf darsligidan ushbu darslikka o'tkazilgani, Xoja hikoyatlari, Oybekning "Qutlug' qon" romani o'rniga "Navoiy" romanining kiritilishi, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Sharof Boshbekov kabi ijodkorlarning yana darslikka qaytishi quvonarli hol, albatta. Xoja hikoyatlari kelgusida yosh avlodni adolat mezonlari asosida ish olib borishga undaydi. 5-sinf o'quvchisi "Hadislar" mavzusini tushunishga qiynalayotgandi. 9-sinf o'quvchisida esa bu mavzu haqida teranroq bilimlarga ega bo'lish istagi bor.

Darslikning uchinchi, ya'ni "O'zbek adabiyoti — ruhiy tarbiya vositasi" bobida Shavkat Rahmon she'riyat berilgan. Bu shoir ijodi oldinlari 7-sinf darsligida edi. Berilgan she'rlar 9-sinf o'quvchisining yoshi va psixologiyasiga mos. Bugun tarixiy mavzudagi asarlar, kinofilmlar orqali berilayotgan ma'lumotlar qatorida, ayniqsa, shoirming "Jangda o'lgan emas biror bahodir" she'ri 9-sinfni bitirish arafasidagi o'quvchilar tavsifnomasiga yoziladigan bir qancha ijobiy sifatning shakllanishiga yordam beradi. Bundan tashqari, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva she'rlarini ham o'quvchilar juda sevim mutolaa qilishdi, yod olishdi. Lekin darslik yutuqlar bilan bir qatorda kamchiliklardan ham xoli emas.

2014-yili nashr etilgan 9-sinf "Adabiyot" darsligidagi "Otello" fojiasi to'g'risida mavzusida berilgan Otello haqidagi bir qancha fikrlar 2019-yili nashr etilgan "Adabiyot" darsligidagi "Hamlet" fojiasi to'g'risida mavzusiga to'g'ridan-to'g'ri, faqat Otello va Hamlet so'zlarining o'rni almashtirilgan holda, hech qanday o'zgarishsiz ko'chirib qo'yilgan. Bu mavzulardagi ayrim fikrlarni aytmaganda, Otello va Hamlet bir xil obrazlar ekan degan fikr uyg'onadi o'quvchida. Misol tariqasida quyidagi jumalarni keltirib o'tmoqchimiz: "Otello" fojiasida insoniyat paydo bo'lgandan beri yonma-yon kelayotgan ezgulik va yovuzlik, xiyonat va sadoqat, jinoyat va ishonch, oljanoblik va pastkashlik singari sifatlar o'rtasidagi kurash tasvirlangan" (2014-yil 9-sinf "Adabiyot" darsligi, 132-bet, 1-xatboshi). Yangi darslikda Otello o'rniga Hamlet so'zi qo'yilgan. Shu xatboshidagi 3-gapda esa "ana shunga intilgan zotlar va o'tkinchi manfaat jumlasini yangi darslikda ezgulikka intilgan zotlar" jumlasini bilan, qabihlik so'zi yovuzlik so'zi bilan almashtirilgan (yangi darslik, 325-bet). "Manfaatparastlik, xudbinlik shunday illatki, unga yo'liqqan kimsa o'zgalarga zug'um qil-

masligi, zarar yetkazmasligi mumkin emas...

Yovuzlik ham o'rgimchakning to'ri kabidir. O'rgimchakning to'riga pashsha ham, uni quvlab kelgan ari ham ilinib qolavergani singari yovuzlik to'ri unga tushgan mazlumni qanday mahv etsa, uni yoygan zolimni ham shunday komiga tortishi mumkin" (eski darslik, 132-bet). "...yovuzlik mazlumni mahv etgani kabi zolimni ham domiga tortadi" (yangi darslik, 325-bet).

To'g'ri, insoniyatga aloqador umumbashariy qadriyatlar va u tomonidan olam yaratilganidan beri ezgulikka aks tushunchalar qoralanib kelayotgani hech kimga sir emas. Ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash tasvirlangan asarlar ko'p, ulardagi qahramonlar ham bir-biriga o'xshashi mumkin. Albatta, bu yerda mavzu jihatidan o'xshashlikni nazarda tutaymiz. Lekin har qanday asar, har qanday obraz boshqasiga qanchalik o'xshamasin, ularning o'ziga xos jihatlari bor.

Har ikkala darslikdagi boshqa-boshqa asar qahramonlari (ayniqsa, bosh qahramonlar) haqida bir-ikki og'iz gap bilan obrazlar xarakteri ta'kidlangan-u, aksariyat jumlar eski darslikdan yangi darslikka timsollar nomigina o'zgartirilib, aynan ko'chirilgan.

"Asarning bosh qahramoni Otello gumonlar, iztiroblar girdobida tasvirlanadi. Xato qilishdan cho'chiydigan, xiyonatchi kechirmaydigan, nohaq qon to'kilishini istamaydigan sadoqatli general har bir qadamini o'lchab bosadi, har bir gapini o'ylab gapiradi" (eski darslik, 133-bet). Yangi darslikda esa yuqorida berilgan parchadagi Otello o'rniga shahzoda Hamlet, sadoqatli general o'rniga shahzoda, xiyonatchi kechirmaydigan birikmasi o'rniga adolatsizlikdan qo'rqadigan birikmasi qo'yilgan (yangi darslik, 326-bet).

"Otello — samimiy odam. U turanishni, kishilar ko'ziga yaxshiroq



ko'rinishni istamaydi. Oriyatli bo'lgani uchun ham xotining xiyonati haqidagi xabarni juda og'ir kechiradi, yo'qotish dahshatidan qutulolmaydi, hamisha shuning ta'sirida yuradi. Lekin u dardini bozorga solmaydi, odamlarga tomosha bo'lishni istamaydi" (eski darslik, 133-bet). Yangi darslikda Otello so'zi Hamlet, yaxshiroq so'zi boshqacha, xotining xiyonati haqidagi xabarni jumlasini otasining o'limini birikmasi bilan almashtirilgan (yangi darslik, 326-bet).

"Otello inson hayoti, umr mazmuni haqida ko'p o'ylaydigan va uni to'g'ri baholashga urinadigan o'ychil odam. Hamma insofi odamlar singari o'ziga nisbatan talabchan... Otello o'zini tinimsiz taftish qiladi, xatti-harakatlari, o'ylari, tuyg'ulariga baho beradi. U har qanday oriyaqli erkak singari xiyonatchi ayolni tezroq jazolagisi keladi..." (eski darslik, 133-bet). Yangi darslikda esa yana Otello so'zi Hamlet bilan, odam, erkak so'zlari yig'it so'zi, xiyonatchi ayolni birikmasi dushmanlariga so'zi bilan almashtirilgan (yangi darslik, 326-327-betlar).

Yangi darslik degani eskisini ko'chirish degani emas-ku! Buni mutaxassislarimizning hafsalasizligi, bee'tiborligiga yo'yamizmi yo' erinchoqligimmi? Nahotki, ikki asarning ikki xil qahramoniga bir xil ta'rif berilsa?! Agar eski darslikda berilgan manbalar qo'shimcha ma'lumotlar bilan to'ldirilsa, bu o'quvchi uchun yangilik bo'ladi. Lekin bir asar qahramoniga yozilgan ta'rifning ikkinchi bir asar qahramoni uchun hech qanday o'zgarishsiz ko'chirib qo'yilishi yuksak asarga nisbatan haddan ortiq qo'pol beparvolik, nopisandlik emasmi? Darslik mualliflarining bunday hafsalasizligi oqibatida o'quvchi asarlarning taq mazzuniga yeta olmaydi. Asarni tahlil qilish shu tariqa berilar ekan, ular mustaqil tahlil qilishga hech qachon kirisholmaydilar. Balki buni

o'quvchi bilmas. Chunki opasi o'qigan asarni (agar darslikka o'zgartirish kiritilsa) ukasi o'qimasligi mumkin. Lekin darslik yaratishga nisbatan mualliflarning bunday hafsalasizligi o'qituvchini ranjitadi.

Bir davrda yaratilgan asarlarning qahramonlari shu davr ruhidan kelib chiqib, bir-biriga o'xshashi mumkindir. Erki bo'g'ilgan xalqning dilida ozodlik istagi yotadi. Adolatsizlik hukm surgan davr odamlari esa adolat uchun kurashadi. Demak, bir davrda yashagan ijodkorlarning qahramonlari shu nuqtayi nazardan, ya'ni ozodlikka erishish istagi, adolatsizlikka qarshi, muhabbat yo'lidagi kurashishi bilan bir-biriga o'xshashi tabiiy. Lekin baribir ularning o'ziga xos qarashlari, xarakteri, hayoti bor. Masalan, "O'tkan kunlar"dagi Otabek va "Mehrobdan chayon"dagi Anvar haqiqatgoyligi, oddiy xalqqa bo'lgan munosabati, adolat uchun kurashishi, xotin-qizlarga muomalasi, sadoqatligi bilan o'xshash timsollar bo'lishi mumkin. Bu esa o'xshash ikki obraz uchun bir xil ta'rif yozish kerak degani emas-ku!

Avvalo, asar mohiyati va timsollar xarakterini yoritishda ularning o'ziga xosligi juda muhim. Aks holda, bir mavzuga bag'ishlangan turli janrdagi asarlarning qahramonlari bir-biriga aynan o'xshash qolgan bo'lardi. O'xshash jihatlarni esa ular bilan tanishish asosida o'quvchi yoki kitobxon o'zi anglab olaveradi.

Yangi darslikning 327-beti 2-xatboshidagi Hamletning xarakteri, siyosiy-ijtimoiy qarashlari, hayot va o'lim haqidagi tasavvurlari o'ziga xos tarzda ochib berilgan. Betakror fikrlar aytilgan. Hattoki "Hayotimni bir chaqaga ko'raman qimmat" degan iqroringin, odam uchun yashash o'lshidan mushuk ekanini anglab yetishining o'ziyoq uning qanday obraz ekanligini ochib bera oladi. Demak, Hamlet — o'ziga xos timsol. Shunday ekan, Otello haqidagi fikrlarni Hamlet uchun to'g'ridan-to'g'ri ko'chirib qo'ymasdan, bir-biriga o'xshash obrazlar bo'lsa-da, ularning har biri o'ziga xos ekanligi aytilib, qiyosiy o'rganigan holda Otello ta'rif uchun berilgan fikrlarni Hamlet uchun ham takrorlamay, uning o'ziga xos jihatlarga ko'proq urg'u berilishi kerak edi.

O'ylaymizki, yangi darsliklar yaratishda pedagoglardan taklif va mulohazalar so'ralayotgan bir paytda darsliklar ustida ishlayotgan mutaxassislarimiz bizzning fikr-mulohazalarimizni ham e'tibordan chetda qoldirishmaydi.

Munavvara NURMANOVA,
Tuproqqal'a tumanidagi 6-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Kitob o'qitishning samarali usullari

Kitob o'qiydigan o'quvchi fanlarni o'zlashtirishda oqsamaydi.

Kitobxonlik deganda faqat badiiy adabiyot mutolasinini tushunmaslik kerak. Ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-ma'rifiy asarlarni ham qiziqib o'qish kitobxonlikdir. Bugungi kun o'qituvchisidan o'quvchilar o'rtasida kitobxonlik muhitini yaratish uchun yangicha yondashuvlar talab etiladi. Shu o'rinda o'z tajribamda yaxshi samara bergan bir qator metodlarni hamkasblarimga ulashmoqchiman.

1. **Qiziqtirib kitob o'qitish.** Bunda o'qituvchi biror-bir qiziqarli hikoya yoki asarni o'qib beradi

va eng qiziq joyida to'xtab ertaga o'qib berishini aytadi. Ertasi kuni ham o'qib bermaydi va qayerdan o'qish mumkinligini aytadi. Hech bo'lmaganda sinfdagi 3-4 o'quvchi davomini o'qishga harakat qiladi. Qolganlar esa qiziqib davomini aytib berishini so'rashadi.

2. **Majburlab kitob o'qitish.** Bu usulda o'qituvchi mavzularga mos ma'lumotlarni majburlab o'qitadi va o'qiganini so'rab oladi. O'qituvchiga aytib berish uchun ham majburan o'qiydi.

3. **Birgalikda kitob o'qitish.** O'qituvchi butun sinfga tanlab

olingan asarni birgalikda o'qishni tavsiya etadi. Asar qiziqarli va o'quvchilarning qabul qilish darajasini hisobga olib tanlangan bo'lsa yanada yaxshi samara beradi.

4. **Kitob o'qish bo'yicha musobaqa o'tkazish.** Asarni kim tez o'qib chiqsa, rag'batlantirish kerak.

5. **O'quvchilarni guruhlariga bo'lib kitob o'qitish.** Har bir guruhga alohida o'qish uchun hikoya beriladi. O'qiladigan asarni guruhlar o'zaro muhokama qilishi zarur.

6. **Ota-ona bilan o'qishni tashkil etish.** Ota-onalari o'qish kerak bo'lgan asarni

berib yuborish va o'qib bo'lgach farzandlariga so'zlab berishlari topshirig'i beriladi.

Men rahbarlik qilayotgan sinfda o'quvchilar o'ta-onalarining o'zlari turli kitoblarni bolalarga sovg'a qilib, o'qishni taklif qilishmoqda. Mutolaa e'tibor bermaydigan oilalarning ko'pchiligi berilgan topshiriqni bajarmaslikdan uyalib kitob o'qib, farzandiga so'zlab berishga majbur bo'lmoqda.

Hayotda dunyoqarashi keng va xotirasi kuchli insonlarga nazar solsak, ular ko'p o'qib, izlanishadi. Qiziqishlari keng va chuqur, har bir voqea-hodisani eslab qolishga urinishadi.

O'quvchining bir daqiqa ham vaqti bekor ketmasligi kerak. Unda

sabot va chidam, kuch-quvvat, bilim va saviyani kamol toptirish kitob o'qishga borib taqaladi. Har hafta kim ko'p asar o'qidi deb so'rab, bir-birlari bilan o'rtoqlashishga o'rnatib borish ham muhim. Bu ishlar boshlang'ich sinflardanoq amalga oshirilishi kerak. Ma'lumki, yosh bolalar ishonuvchan, taqlidchi va turli o'yinlarga qiziquvchan bo'ladi. Shuning uchun "Bahriyab" aytishuvlari, "So'zlar zanjiri tuzish" kabi o'yinlarni tashkil etish ham kitobxonlikka kirib borish uchun bosqich vazifasini o'taydi.

Xurshidaxon AHMEDOVA,
Go'shtepa tumanidagi
43-maktabning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Mutolaa zavqi

“O'zbek bo'ldi bu qalam!”*Tog'ay Murod asarlarida timsollar talqini va taqdiri*

Tog'ay Murod o'zbek adabiyotida yangi bir davrni boshlab bergan yozuvchidir. “Ot kishnagan oqshom”ni o'qib uning ijodi bilan ilk bor tanishganman. Yodimga mustahkam o'rnatib qolgan asardagi tarlonning tasviri bo'ldi. Chavandoz bo'lmagan odam otini bu qadar go'zal tariflay olmasa kerak. Tog'ay Murod xayolimda chavandoz bo'lib jonlandi.

“Birodarlar, bo'z ot qanday bo'ladi? Surpday oppoq bo'ladi. Bordi-yu ajdodida bo'lsa, to'qqizga to'lganda tarlon bo'ladi. To'qqiz yoshida bo'zning badanida xolday-xolday qora donalar paydo bo'ladi. Shundan boshlab u bo'z emas, Tarlon bo'ladi. Tarlon — xol-xol ot! Tarlon otlar sarasi!..”

Ernest Seton-Tompsonning “Yovvoyi yo'rg'a” asarini tarjima qilgan adib qanchalar tabiatga yaqinligini, otlarni qanchalar yaxshi bilishini yana bir karra isbotladi. Uni o'qigan o'quvchi Tog'ay Murodga xos bo'lgan musiqiylikni his qiladi:

“Yuvosh emas to'riq otini, asov emas qora to'riqni ham ko'rmadim. Agar bo'z otini yaxshilab minib o'rgatsa, baraka topadi. Ammo-lekin qora ot eshakdek o'jar”.

Savol tug'iladi: otlarni bunchalar yaqindan Tog'ay Murod bilganmi yoki amerikalik yozuvchi Ernest Seton-Tompsonmi?

Keyin “Otamdan qolgan dalalar” romanini o'qib chiqib, yozuvchi haqida boshqacha xulosa chiqardim — u dehqon bo'lgan:

“G'o'zalarim bo'y-bo'y o'sdi. Go'za bo'ylab o'ssa, go'za bo'lmaydi — daroz-daroz bo'ladi. G'o'za yonlab-yonlab o'ssa g'o'za bo'ladi... Bo'ynimga etak osdim... Insof bilan o'smish g'o'zalarimni chilpimdim”.

Uning qalami ketmon bo'ldi. Osmonni zabt etsa ham, maqsadi yer bag'ri

bo'ldi. U haqning timsoli bo'ldi. Qancha Dehqonqullar qo'lida haqsizlikka bo'y bermay har bosh ko'targanda, sohibini — Jamoliddin farg'onachini atrofga bir on bo'lsa ham, nazar solishga majbur etdi. O'zbek xalqi uchun haykal bo'ldi o'sha ketmon, yo'g'-ey, o'sha qalam. Qalami Tarlon bo'ldi. Uloqning oxir-oqibat sohibi bo'ldi. Ziyodillo chavandoz timsolida qancha tepkilasha ham, uloq chopib chiqavergan xalq bo'ldi, o'zbek bo'ldi bu qalam! Muallifning o'zi Bo'ri polvon bo'ldi. Dardi dardxaltasiga to'ldi. Dardi xalqning dardi bo'ldi. Javobini raisdan kutdi. Rais esa raisman demay, gursulalib kurash tushib yurguchi Xidirov bo'ldi. U ham Bo'ri polvondan-da hayron bo'ldi.

Tog'ay Murod asarlari “Munjo't” kuyiga hamohang. Asarlarini mahliyo bo'lib, mast bo'lib, kuyga solib o'qiy-siz.

6-sinf adabiyot darsligida yozuvchining “Yulduzlar mangu yonadi” qisasi berilgan. O'qituvchi har bir mavzuni o'tishdan avval o'quvchining ko'ngliga o'sha asarga nisbatan cho'g' sola bilishi kerak. Buning uchun esa o'qituvchi nafaqat muallifning darslikda berilgan asarini to'liq o'qib chiqishi, balki butun ijodi bilan imkon qadar tanishib chiqishi maqsadga muvofiq. Ayniqsa, Tog'ay Murodning har bir asari yangi bir olam. Asar qahramonlari ko'pda ko'zga tashlanmaydigan Dehqonqul, Ziyodillo cha-

vandoz, Bo'ri polvonlarning har biri fazilati, kamchiligi bilan o'quvchining suyuksli. Shu ma'noda, nuqsonlardan xoli bo'lmagan Bo'ri polvon obrazida men Tog'ay Murodni ko'rganday bo'ldim. 1976-yilda mana shunday asar yaratishning o'zi katta jasorat, katta polvonlik edi. Urf-odatlariga qo'shilib o'zi ham eskilik sarqitiga aylanayozgan xalq, quruq jasad(manqurt)ga aylana borayotgan odamlar, ularning dardini bilmaydigan, oyog'i yerdan uzilgan raislar haqida bong urish o'sha davr uchun raqibining kimligini bilmay turib quriga chiqish bilan barobar edi. Asarning har bir misrasi hikmat. Uning o'quvchi uchun tarbiyaviy ahamiyati katta. Asar g'oyasini tushunish va hazm qilish uchun o'quvchiga to'liq o'qib chiqishni tavsiya qilish kerak. Darslikda ikkinchi planda qolib ketgan Nasim obrazining aslida Bo'ri polvonning bolaligida to'n yopingan do'sti ekanligi, xiyonati ustiga ko'r bo'lay deb qasam ichishi natijasida ko'zi ojiz bo'lganligini bolaning o'zi topsa, dars samarasini yanada oshiradi. Bo'ri polvon haqidagi ma'lumotlar tizimlansa, u uylanguncha polvonlik qilgani va qolgan 20 yilida kolxoz raisi bo'lganligini bilib olamiz.

Kurash musobaqalarini eng xolis odam boshqarishini bilsak, Bo'ri polvonning qanday odam ekanligi haqida tasavvur hosil qilamiz. Asar voqealari bir kechada bo'lib o'tadi. U o'zbek to'yli bilan bog'liq go'zal urf-odatlar tasviri bilan boshlanadi. Ermat polvon va Shukur polvon kurashi orqali milliy urf-odatlar va ularga hurmat bolalidan singdirib borilishi haqida tushuncha hosil qilamiz. Yoki Temir polvonning Chori polvonga bir paytlar kurash sir-

larini o'rgatgan ustoz bo'lgani uchun qoyil bo'lishi o'zbek xalqining ustozga bo'lgan hurmati, yuksak ma'naviyatining yorqin timsolidir. Bo'ri polvonning Nasim polvonni qayta davraga yaqinlashmaydigan qilish maqsadida qo'l chilini mo'ljallab kurashga chiqqan paytdagi soniyalik holati insondagi g'azab odamni eng manfur kimsaga aylantirishi mumkinligini ko'rsatadi. Bo'ri polvonning ko'ngli chetiga in qur-mish kibr bosh ko'targanda, u doim yulduz sanadi. Har tasbeh “shiq” etib ovoz chiqarganda Haqning ogohlantirishi bo'ldi. Bo'ri polvonning o'zi bilan olishuvi ham ayovsiz bo'ldi. Bu jangda yana Bo'ri polvon yengildi. Nasim oshnasini bag'riga bosib yig'lagisi keldi. Yana mag'lubiyat. Bo'ri polvon o'zidan o'zi yengildi. Kurashning hali davom etishi tunda porlaguvchi yulduzlarga qiyos qilinadi. Agar bu kurash emas, balki mehr-muhabbat bo'lganda edi, ehtimol, u yulduzga emas, quyoshga o'xshatilmadi?!

Men asarni o'qib chiqib shunday xulosa chiqardim: Tog'ay Murod polvon bo'lgan! Kurash texnikasi, polvonlar kechinmalarini shunday tasvirlash uchun, albatta, hech bo'lmasa bir marta davrani gursillatib kurash tushgan yoki “Yo otamning piri!” deb ayqirib, raqibini yulduz sanatgan bo'lishi kerak.

Tog'ay Murod orzu qilgan kunlar asar yaratilganidan 22 yil keyin keldi. 1998-yili Xalqaro Kurash Assotsiatsiyasi (IKA) ta'sis etildi. Bugun 100 dan ortiq davlat Assotsiatsiya a'zosi. Bugun qaysi bir ajnabiy maydonda “kurash”, “halol”, “yonbosh” singari so'zlar kurash musobaqasini boshqaryapti. Bu so'zlar har jaranglaganda, ko'nglimizda iftixon bo'y ko'rsatyapti. Demak, kurash maydonida Bo'ri polvonlar timsolida o'zbek xalqi g'alaba nashidasini mangu surajak!

Zulayho MAMATQULOVA,
Toshloq tumanidagi 15-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Sinab ko'ring

“Shonaman taralar qizlarning sochi”...*“Kuntug'mish” dostonidagi iboralar tahlili*

Xalq og'zaki ijodi azal-azaldan xalqimizning eng sevimli hamrohi bo'lib kelgan. Onalarimizning yoqimli allalari bilan dunyoni tanigan bo'lsak, buvijonlarimiz ertaklari bizni yaxshiliklar, ezguliklar, hayotning ajabto'vor go'zalliklari tomon yetaklagan. Xalq dostonlari esa xalqimiz tarixi, turmush tarzi, urf-odatlarini va milliy qadryatlarimizni aks ettiruvchi o'ynadir. “Kuntug'mish” dostoni tahlili misolida buning yaqqol guvohi bo'lamiz. O'quvchilarimiz “Xalq baxshilari”, “Folklorshunoslar”, “Tilshunoslar” guruhlariga bo'linib ushbu dostonni tadqiq etishdi.

Xalq dostonlarini ijro etuvchi shoirlar “Xalq baxshilari” deb atalgan: Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Tilla kampir, Islom shoir.

Kampir og'zaki ijodini xalq orasidagi yuzlab ijod ahlidan yozib olib, saralab o'rganish, tadqiq etish, ularni kitob holida yana xalqqa qaytarish, kelgusi avlodlarga yetkazish oson ish emas. Ana shunday zahmatkash olimlar — folklorshunoslardir: Mahmud Zaripov, Hodi Zaripov, Muzayyana Alaviya.

Har bir badiiy asar alohida san'at asari. Asarning badiiyligi uning tili va badiiy san'atlarining mohirona qo'llanishidir.

Xalq dostonlariga xos xususiyatlardan biri ularida qiziqarli voqealar hikoya qilinishi, qahramonlarning sarguzashtlari yaxshilik bilan tugashidir. “Kuntug'mish” dostoni misolida buning guvohi bo'lish mumkin.

Darsda “Xalq dostonlari va ularning xususiyatlari”, “Kuntug'mish” dostonining yaratilish tarixi”, “Kuntug'mish timsoliga tavsif”, “Xolbeka timsoliga tavsif”, “Akbarxo'ja — xiyonatkor do'st timsoli” kabi kichik-kichik mavzularda ma'ruzalar tayyorlash mumkin.

“Kuntug'mish” dostoni xalq baxshilarining ijodiy salohiyatini baholash mezon bo'lgani uchun

ham juda ko'p baxshilar tomonidan mahorat bilan ijro etilgan. Dostonning Ergash Jumanbulbul o'g'li, Bekmurod Jo'rabo'y o'g'li, Nurmon Abdubov o'g'li, Egamberdi Jumanbulbul o'g'li-dan yozib olingan nusxalari bor.

“Kuntug'mish” dostonida qo'llangan badiiy san'atlardan namunalar:

Talmeh:

*Shonaman taralar
qizlarning sochi,
Mada'd qiling Bobo
Zangi podachi,
Analhaq deb Mansur
senga osildi,
Assalomu alaykum,
dorning og'ochi...*

Mubolag'a:

*Sen muncha bo'lib purxun,
ko'zyoshing oqar Jayhun,
Yo Laylimisan Majnun,
qaydin kelasan, ay gul.*

Saj:

*Qoraxon qarasa, qog'ozda
bir qiz turibdi qaqqayib: qoshi-
ni kerib, labini burib, chikka
bel bo'lib, shirin qilib kulib,
taraqqos boylab, suqsunday
bo'ylab, tovsunday taranib, bel-
lari buralib turibdi.*

O'quvchi qaysiki asarni mutolaa qilar ekan, asardagi janrlarga tahliliy nuqtayi nazardan ko'z yugurtirishi maqsadga muvofiq. Masalan, kinoya berilgan jumlag'a e'tibor qaratamiz: Kuntug'mish ikki o'g'liga buyurdi: “Mening do'stimdan o'chlarining olinglar”. Dostonida qo'llanilgan hikmatli so'z va xalq maqollari ham o'ziga xos tarzda qo'yilgan. “Yaxshilarning yuzin ko'rsang jannatdir, yomon odam qilgan ishi minnatdir”, “Kamlkning ka-

moli bor, manmanlikning zavoli”, “G'aribning ko'nglini ovlamoq savob”, “Zarning qadrini zargar bilar har yerda”, “Musofirchilikda yo zar yarar, yo zo'r yarar kuningga”, “Xon g'azabi — Xudo g'azabi”. Bu maqollardan o'quvchining so'z boyligi oshib boradi. Farzandlarimizning dunyoqarashi kengayishi va nutqi rivojlanishida xalqona iboralar va o'xshatishlar alohida ahamiyatga ega: “Yurak bag'ri ezilib, ko'zdan yoshi to'kilib, baxti qora, qora baxti, qora do'ndi, chiqsum ko'zing”, “Toza gulday so'lmoq”, “Oh tortganda ohim ipday eshildi”, “Bog'da ochilgan gulday yetim”, “Jannatdagi hurday yetim”...

Dostonni bir marotaba emas, bir necha marotaba o'qish, asosiysi uqishni tavsiya etamiz. Muhimi, xalq og'zaki ijodi namunalari ijodkorlikni oshirishi, xalqona udum va an'analarni ifodalashi bilan qimmatlidir.

Iqbol QURBANOVA,
Qo'shrabot tumanidagi
17-maktab o'qituvchisi

"Boburnoma" ni anglash saodati

Zahiriddin Muhammad Boburning shoh asari bo'lmish "Vaqoye" — "Boburnoma" jahonning 30 dan ortiq asosiy tillariga tarjima qilingani ma'lum. Bu asar turkiyda yozilgan bo'lsa-da, unda arabiy va forsiy iboralar ham bisyor ekanidan ayonki, Boburshoh shu uchala tilni ham mukammal bilgan.

Mazkur qomusiy asardagi bir forsiy ibora haqida mulohazalarimizni bayon etar ekanmiz, Vatanimizda nashr qilingan asardan quyidagi ko'chirmaga diqqat qilishingizni xohlar edik:

"(181a)... *Yana Muhammad Solih edi, choshni-liq g'azallari bor, agarchi hamvorlig'i choshnisicha yo'qur, turkiy she'ri ham bor, yomon aytmaydur. So'ngra Shayboniyxon qoshig'a kelib edi, filjumla rioyat qilib edi. Shayboniyxonning otig'a bir turkiy masnaviy bitibtur. "Ramali musaddasi maxbun" vaznidakim, "Subha" vazni bo'lg'ay, bisyor sust va furudtur, ani o'qug'on kishi Muhammad Solihning she'ridin bee'tiqod bo'lur. Bir yaxshi bayti budur:*

"Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona, Qildi Farg'onani tanbalxona".

Andijon viloyatini "Tanbalxona" ham derlar, ul masnaviyda muncha bayt ma'lum emaskim, bo'lg'ay" Sharir va zolimtab' va berahm kishi edi".

Yuqoridagi ko'chirmadan "Subha" vazni bo'lg'ay" iborasiga e'tibor qarataylik. Asl manba "Boburnoma"-da ushbu ibora arabiy yozuvda bunday yozilgan:

سبحه زنى (subhazani) bo'lg'ay; aslo ("Subha" vazni bo'lg'ay) emas! Zero, forschada (subha zadan) — tasbeh o'g'irmoq fe'lidan hosil bo'lgan masdari — {سبحه زنى} (subha zani) bo'lib, tasbeh o'g'irishni anglatadi. Arabcha "subha" — tasbeh shodasini bildiradi. Mazkur forsiy iborada so'z o'yini mavjud; o'yindan murud — Muhammad Solihning bitgan masnaviyi go'yo "tasbeh o'g'irish" kabi, ya'ni "befoyda ish qilgan"dek, ya'ni — ipga tizilgan tasbeh toshlarini bir tomondan boshqasiga o'tkazgandek benaf, befoyda ish qilgan (tasbeh toshlari ozayib ham, ko'payib ham qolmaydigan ish), demoqchi...

Tasbehdan foydalanuvchi mo'min birodarlari-miz kechirsinlar, biz aslo tasbeh o'g'irish befoyda ish demoqchi emasmiz, axir tasbeh o'g'irish ham bir ibodat turi vositasi ekanini mutlaqo inkor qila olmasmiz. Boburshohni ham to'g'ri tushunmoq istagimiz ham bundan kam emas...

Bizning o'zimizda fikrimizcha, Muhammad Solihning shuncha ovora bo'lib yozgan masnaviyi mazkur keltirilgan birgina bayti: *"Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona, Qildi Farg'onani tanbalxona"* sig'a ham arzimas ekan, deb tushunib, yangilishmayapmiz shekilli?...

Ana endi yuqoridagi forsiy ibora hozirgi o'zbek tilimizga qanday tabdil qilinganini ko'raylik-chi: *"Yana Muhammad Solih edi. Yoqimli g'azallari bor. Biroq silliqliqi mazasicha emas. Turkiy she'ri ham bor. Yomon yozmaydi. Keyinroq Shayboniyxon qoshiga kelgan edi. Darhaqiqat, hurmat va e'tibor qozondi. Shayboniyxon-ga atab ramali musaddasi maxbun — "Subha" vazni-da bir turkiy doston bitgan. Ancha sust va bo'shtobdir. Uni o'qigan kishining Muhammad Solih she'riyatidan ko'ngli soviydi. Bir yaxshi bayti budir:*

Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona, Qildi Farg'onani tanbalxona.

Andijon viloyatini Tanbalxona ham deydlar. U masnaviyda bundan yaxshi bayt yo'q. Yaramas, zolim tabiatli va berahm kishi edi".

Ana shu forsiy ibora rus tiliga M.Salye tarjimasida: "В честь Шейбани хана Мухаммед Салих написал тюркское месневи в размере рамаль шестистопный усеченный, то есть в размере [поэмы Джамии] "Четку". — Tarjimasi: Shayboniyxonning sharafiga Muhammad Solih bir turkiy masnaviy bitibtur: "Ramali musaddasi maxbun" [Jomiyning "Subha" dostoni

— ya'ni, "Subhat-ul-abror" — M.A. va Sh.R.] vaznida, deyilgan.

Shunisi taajjubki, yapon olimi professor Eyji Mano janoblari ham "Vaqoye" ning o'zbek va rus tillariga qilingan nashrlaridan albatta foydalangan bo'lishi muqarrar holda, "Vaqoye" ning turkiy matniga (subha [v]azni bo'lg'oy) tarzida [a] vov harfini qo'shib, katta qavs orasiga kiritib qo'ygan. Natijada, yuqoridagi kabi, ("subha" zani bo'lg'oy) → ("subha" vazni bo'lg'oy)ga aylanib qolgan!

Arab olimasi doktora Magda Saloh Maxluf xonim ham xuddi yapon olimi professor Eyji Mano singari yo'l tutgan. Mana ul xonim tarjimasiga e'tibor qilaylik:

{مخفف صالح: له غزليات لطيفة لكتها رغم لطفقتها}


ليس بها ذوق. كما لا له اشعارا بالتركية لئنت بالتركية قصد فيما بعد شيئاً خان، فأولاه عنايتاً، نظم مثونياً بالتركية سماه شيئاً خان من بحر الرمل الممدس على وزن المخبون، أحد أوزان السجعة. وهو نظم يعوزه الذوق من يقرأه لا يصنق أنه لخشف صالح لكن به بيت يقول فيه:

صارت فرغته وطناً لتتيل * فقبل منها دارا للكسل

وكان يُظنون على "أنديجان" كذلك اسم [لتتيل خانه]

أي دار الكسل. لكن لا نعرف سبب وجود هذا البيت في المثنوى. وكان رجلاً شريفاً ظالماً قاسياً. // بقرشاه، مطير الدين محمد. تاريخ بقرشاه المعروف ب"بايرنامه". وقائع (فرغه - كابل - الهند) تصنيف بايرشاه نقلها إلى العربية وقت لها وعلق عليها / ما جادة مخلوف ط 1، القاهرة: دار الأفاق العربية 2013، 747 ص. 374-375. {ص}

(Muhammad Šālih: lahu g'azaliyyātun laḥfātun. Lakinnahā rag'ma laḥfātihā laysa bihā ḥavqun. Kamā 'anna lahu 'ash'ārun bi-turkiyyati laysat bi-r-rakika-ti. Qasada fihā ba'du Šaybāni Hān, fa'avlāhu 'in-āyatan, nazama mašnaviyyan bi-turkiyyati sammāhu Šaybāni Hān min bahri-r-ramali-l-musaddasi 'alā vazni-l-mahbūni, 'ahadi 'avzāni-s-subhati. Va huva nazama ya'üzuhu-ž-žavqu, man yaqra'uhu lā yuşad-diqu 'annahu li-Muhammadin Šālihin. Lakinna bihi baytun jayyidun yaqūlu fihī: Šārat Farg'ānah vaṭanan li-Tanbali ... fa-ja'ala minhā dāran li-l-kasali. Va kāna yutliqūna 'alā 'Andijāna ka-žālīka isma [Tanbal hāna] 'ay dāru-l-kasali. Lakinna lā na'rifu sababa vujūdi



hāza-l-bayti fi-l-masnaviy. Va kāna rajulan sharīran zālīman qāsiyan) — Tarjimasi: "Muhammad Solih: Uning yoqimli g'azallari bor. Yoqimli bo'lgani bilan, lekin, bemaza. Shuningdek, uning turkiydagi she'rlari ham chakki emas. Keyinchalik, Shayboniyxon huzuriga borib, uning mehrini qozondi. Abdurrahmon Jomiyning "Subhat-ul-abror" vaznlaridan biri bo'lgan ramali musaddas bahrining maxbun vaznida turkiyda bir masnaviy yozdi va uni "Shayboniyxon" deb atadi. (Maxbun — xubning bir turi. Xubn she'r vazniga kiruvchi zihof. [ya'ni, she'r vazni talabiga ko'ra bo'lg'indagi unlini o'zgartirish: qo'shish yoki isib tashlashdir. — M.A. va Sh.R.]. Va bu (masnaviy) tuzsiz va tuzsiz bir nazmdirki, uni o'qigan kishi Muhammad Solihning ishi ekanligiga inonmaydi. Lekin ba'zi bir yaxshi baytlar ham uchrab turadi: "Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona * Qildi Farg'onani tanbalxona". Shuningdek, Andijonni "Tanbalxona" (ya'ni, dangasaxona) deb ham atashgan. Lekin Masnaviydan mazkur baytning joy olish sababini bilmaymiz. Va u o'ta zolim va yovuz odam bo'lgan".

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, "Vaqoye" dagi mazkur: (subhazani) bo'lg'ay) ibora yetarlicha tushunilmagan, yoki ul iboraga "qo'shimcha tuzatish" kiritilib, "to'g'rilangan" ko'rinadi... Zero, mavlono Jaloliddin Rumiy: "Ha, degan so'zni 27 xil ohangda aytaman; yana nima demoqchi bo'lganimni, o'zim bilaman", degan edilar-da!

Shuni alohida ta'kidlash joizki, zamonamizning jonkuyar boburshunos olimlaridan N. Otajonov va D. Hoshimovalarning "Vaqoye" — "Boburnoma" asarining ingliz tiliga qilingan qator tarjimalar haqida olib borgan chuqur tadqiqotlari tahsinga sazovor. Ammo mazkur (subha zani bo'lg'oy) iborasini tilga olinmaganini eslab o'tish zarur, deb o'ylaymiz.

Boshqa tadqiqotchilar haqida ham ana shunday fikrni aytish joizdir...

Ma'lumki, insonning har qanday amali benuqson bo'lmasligini tan olgan holda, bizning ushbu tadqiqotimiz ham nuqson va xatolardan xoli emasligiga iqromiz...

Afsuski, "Vaqoye" ning Qozon, 1857-y. (arab yozuvdagi) nashri va shuningdek, boshqa xorijiy tillarga qanday o'g'irilgani, hozircha, bizga qorong'i. (وله أعلم بالواب) "Va-l-lohu a'lamu bi-s-savob" — Alloh ta'alo to'g'risini bilguvchidir...

Amonulloh MUSO,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
"Arab tili va adabiyoti al-Azhar" kafedrasida
katta o'qituvchisi,
Shokirxon RUSTAM XO'JA,
Xalqaro Boburshoh mukofoti sovrindori

Ona obrazida hayot muallimi

Ayol borki, ona bo'lishni orzu qiladi. Onalik esa bittagina yumushdan iborat emas. Eng asosiysi murabbiylikdir. Isajon Sultonning "Onayizorim" asarida ona obrazining bir katta ustoz sifatidagi talqinini ochishga harakat qildik. Asarda ham ona obrazi birinchi navbatda murabbiy.

Asarda dastlab ona obrazi ro'zg'or ishlari uchun javobgar shaxs sifatida gavdalanadi: "Hamma ishni otangga tashlab qo'yib o'tiraverishimiz insofdan bo'lmaydi", deya qizini ham xuddi shunday javobgarlikka chorlaydi. Shunaqa ishlarni ham o'rganib olaqol, "vaqti kelib kerak bo'lib qoladi", deydi. Ona ro'zg'or iqtisodchisi, qizga hayotni o'rgatar ekan, oilada yo'q narsani ham borday ko'rsatish oila bekasining ishi ekanligini uqtiradi: "Oz masalliq bilan ham shirin ovqat pishirishni o'rganish kerak, qizalot'ing, ro'zg'orda har doim to'kin-sochinlik bo'lavermaydi. To'kin-sochinlik bo'lganda ham shu qoidaga amal qilishing shart, qara, otang hamma mayda-chuydalarni uyga olib keldi. Endi bularni bir haftaga yetkazish kerak. Go'shtni tuzlab shamolli joyga osasan, shunda u qoq go'shtga aylanib ancha muddat buzilmay turadi. Sabzilarni yerga ko'masan, o'rada salqinda tursin, piyozni esa ko'mib bo'lmaydi", "egam meni ekib qo'ydi",

deb o'yab o'sib ketishi mumkin", deya qiziga nasihat beradi.

Asarda ona obrazi chinakam hayot tarbiyachisi sifatida talqin etiladi. Ona har bir ishni qilar ekan, qiziga ibrat bo'lishga harakat qiladi. Ona nafaqat ro'zg'or ishlari, balki hayotdagi turli rasm-rusumlarni, tutumlarni tushuntiradi. Xolasini kasalxonaga ko'rgani ketayotgan Ra'noga quyidagilarni uqtiradi: "Odamning ko'nglini shu ikki shirin so'z bilan olasan-da, bolam. Hamma ham shu ikki og'iz shirin so'zga zor. Aytgan gaping uchun birov sendan bir nimani so'rarmidi, bor-yo'g'i, og'zingning bir chetidan chiqadigan nafas, xolos". Bundan tashqari, u hayotdagi turli tutumlarga diqqat qila boshlaydi. Onasining har bir aytgan gaplariga quloq tutadi.

Ona bergan tarbiya farzandiga bir umr hamroh bo'ladi. Oddiy narsalardan tortib, murakkab vaziyatlargacha aytib o'tadi. Zero, farzandim hayotda hech qachon qiynalmasin, e'tiborli bo'lsin, deya hamma narsaga e'tiborini qaratadi. Mu-

omala qilish yo'l-yo'riqlarini o'rgatadi. Muomala qilishda vaziyatni inobatga olishni ham uqtirib o'tadi: "Biroj joyga chaqirishsa, qani ko'ramiz deysan, yo'qsa seni mehmonga chaqirganlar "o'la ko'zi uchib turgan ekan, darrov rozi bo'ldi" deyshlari mumkin", deya uqtiradi. Shuning uchun ham xalqimizda, "onasini ko'rib qizini ol" degan maqol kelib chiqqandir. Ya'ni, ona qanday ma'naviyatga ega bo'lsa, shunday tarbiya beradi. "Onayizorim" asaridagi ona obrazi esa yuksak ma'naviy qalb egasi. U hayot atalmish bog'ning bog'boni. U farzandiga to'g'ri va ishonchli yo'lni tanlashni o'rgatadi. Bola ona qornidagi paytidayoq tarbiya boshlanadi. Aytishlaricha, ona suti orqali farzandga hayotning dastlabki saboqlari singadi. Ari bog'lar oralab nektar yig'ib, asal hosil qilgani kabi, ona sutida yorug' dunyoning hamma ta'mi-yu mazasi mujassamlashgan. Ikkiga kirgan bola mustaqil yura oladi, qorni ochsa, yemakka qo'l cho'zib, og'ziga sola oladi, chiroyli narsani tanib, xataridan qocho boshlaydi. Insoniylikning bu dastlabki saboqlari bolaning vujudiga ona suti orqali o'tgani eng singishimlidir. Kezi kelganda shuni ham aytish kerakki, sut bilan birga bolaga onaning xohish-u istak-

lari, didi, ruhiy suratlari ham o'tib boradi. Keyingi tarbiyasi orqali esa ona shaxsi bilan omuxtalashib boradi. Asarda ona birinchi navbatda qiziga sabrli bo'lishni, hayotga yengil-yelpi qaramaslikni uqtiradi: "Bilib qo'y, uydagi gapni ko'chaga chiqarma, zoriqib o'layo'zgan bo'lsang ham o'zingni to'q ko'rsatasan".

Asarda ayol uy-ro'zg'ori uchun mas'ul shaxs sifatida tasvirlanadi: "Oy qizim, yer ishiga doim xotinlar qarab kelishgan dedi, hamma ishni otang qilaversa charchab qoladi-ku. Ayolda baraka bor deyishadi. Shuning uchun kuch-quvvat kerak bo'ladigan ishlarga otang, maydalariga sen bilan men qaraymiz. Otang saharlab uydan chiqib ketgach, kechgacha mehnat qiladi, shom mahali horib, charchab qaytadi, shu ishlarni bajarib qo'ysak, xursand bo'ladi. Buni ro'zg'or deydilar, jonim qizim".

Ayol borki, onasining tutumini tutadi. Erkak zoti borki, umrining poyonigacha onasi damlagan choy, pishirgan ovqatini qo'msab o'tadi. Onasini yo'qotgan odam borki, to yetgan joygacha nasihat va vasiyatlariga amal qilishga harakat qiladi. Bu dunyoda asosiy tarbiyachisi ham onayi muhtaramasidir.

Sitora TOSHLONOVA,
Shahrixon tumanidagi
20-maktabning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

O'qituvchiga yordam

"Ruhlar isyoni" dostoni bo'yicha test savollari

1. Shoirning dilin ezgan ... dardidir.

- A. Iste'dodning
- B. Istibdodning
- C. Odamzodning
- D. Ozodlikning

2. Bir donishmand ulug' hakim nima bilan ko'rning ko'zini ochadi?

- A. Moychechak guli bilan
- B. Bug'doy suvi bilan
- C. Nashtar bilan
- D. Anjir suvi bilan

3. O'tda yonish bo'lsa faqat - Ishq o'tida yonaylik .

Faqat bizga g'am-u qadar,
Qayg'u-hasrat yot bo'lsin.
To biz uchun jon berganlar -
Ruhni mangu shod bo'lsin.

Ushbu jumla dostonning qaysi qismida keltirilgan?

- A. Jaholat to'g'risida rivoyat
- B. Tutqunlikda
- C. Oliy ruhlar to'g'risida naql
- D. Ozodlik

4. Nechanchi yilning sha'bon oyida toj sohibini o'zi suygan joyida hibs qilganliklari aytilgan .

- A. 1096-yil
- B. 1060-yil
- C. 1076-yil
- D. 1069-yil

5. Bobokalon ... der:

"Quloq solgin so'zimga,
Adolat deb bitdim-u she'r.
Mil tortdilar ko'zimga".
Ushbu jumla kimning fikri?

- A. Navoiy
- B. Bobur
- C. Rudakiy
- D. Nazrul Islom

(11-sinf)

6. der:

"Zulmat aro ko'p izladim yo'limni.
Men o'zimni qildim ado,
Yengolmadim zulmni".

Ushbu jumla muallifi kim?

- A. Hakim
- B. Navoiy
- C. Rudakiy
- D. Nazrul Islom

7. Ammo oliy ruhlar faqat

Pok dillarga yor emish.
Qayda bo'lsa samimiyat -
Osha yerda bor emish...

Dostonning qaysi qismida keltirilgan?

- A. Jaholat to'g'risida rivoyat
- B. Tutqunlikda
- C. Oliy ruhlar to'g'risida naql
- D. Ozodlik

8. Ushbu dostonda kimni g'am deb ataydi?

- A. Tabibni
- B. Habibni
- C. Raqibni
- D. Xalqni

9. "Abadiyat haqida rivoyat"ni kim aytib beradi?

- A. Roviyy
- B. Gandi
- C. Tagor
- D. E. Vohidov

10. Agar yarim ming yil avvalgidek zamon bo'lganda Nazrul Islom kim singari ruboiylar yoza olishini aytadi?

- A. Nizomiy Ganjaviy
- B. Xusrav Dehlaviy
- C. Bobur
- D. Bedil



11. Qaysi xalq bunday istibdodga ko'rgilik deya ko'ndi?

- A. Hind
- B. Musulmon
- C. Chuvash
- D. Xitoy

12. Qaysi xalq bunday istibdodga taqdir deya ko'ndi?

- A. Hind
- B. Musulmon
- C. Chuvash
- D. Xitoy

13. "Shoir qalbi" turkumida nimalarni bir-biriga zolimdir deb aytadi?

- A. Yer va osmon, ko'z va qosh
- B. Tun va kun, o't bilan suv
- C. Olov bilan suv, oyoq bilan bosh
- D. Yer va osmon, chap bilan o'ng

Tuzuvchi: Rahima QIYOMOVA,
Zarafshon shahridagi 2-maktabning
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

XX asr boshlarida Samarqandda adabiy muhit

Markaziy Osiyo, jumladan, Samarqand o'rta asrlarda aholisining madaniy va ma'naviy saviyasining asosiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan shahar hisoblangan. Shaharda madaniy hayotning nishonalari hatto mang'itlar (XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlari) sulolasi hukmronligi davrida ham muayyan darajada xalqning ma'naviy hayotida namoyon edi. Bunda ayniqsa madrasalarning alohida o'rni bo'lganligini e'tirof etish lozim.

XIX asr oxiridan boshlab Samarqanddagi madrasalar va boshqa ta'lim muassasalaridagi ta'lim tizimi mazmun va mohiyati jihatdan yangi bosqichga ko'tarila boshlandi. Bu davr Samarqand madrasalari ulardagi ta'lim tizimining mazmun va mohiyati, mudarrislarining saviyasi, madrasalarning ilmiy mavqeyi nuqtayi nazaridan uch pog'ona; "a'lo", "avsat" va "adno"ga bo'lingan. Ayni paytda mazkur istilohlarni "oliy", "o'rta" va "quyi" yoki "boshlang'ich" toifalar tarzida tasnif etish mumkin. Masalan, Samarqandda 1420-yilda tashkil topgan Mirzo Ulug'bek madrasasi o'zining yirik vaqf mulklari va moddiy ta'minoti, o'quv dasturlari, o'qitish tizimi va uslubiga ega bo'lgan yirik "a'lo" maqomidagi oliy dargoh hisoblangan.

Sovet davri tarixshunosligida muntazam uqitirib kelingan bir fikr bor, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda ma'naviy qoloqlik hukm surganligi keltiriladi. Sho'rrolar hukmronligining oxirgi yillarida yaratilgan va keyingi davrlarga oid tadqiqotlarda ham mazkur qarashlar takrorlangan. Zero, ularning ko'pchiligidagi ta'lim tizimidagi jiddiy nuqsonlar sifatida asosan diniy bilimlar qobig'ida o'rta, shu nuqtayi nazaridan ta'lim va tarbiyaning inqirozga yuz tutganligi ko'rsatib o'tilgan. Tarixning shonli varaqalarini o'rganish va ilmiy tadqiq etish faqatgina o'timishni tanqid qilishdan iborat emas. Zero, bu kabi biryozqlama qarashlar kelajak avlod tafakkurida milliy ruhiyatning shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, yuqoridagi keltirilgan fikrlar asossiz bo'lib, ushbu davrda hozirgi O'zbekiston Respublikasi hududida 400 ga yaqin madrasa faoliyat olib borgan va ularda ta'lim uzluksiz davom ettirilgan. Aslida ham bu raqamlar o'sha davr voqealidan kelib chiqqan holda katta miqdorni tashkil etadi. Shuningdek, mohiyat nuqtayi nazaridan ham madrasalarda dunyoviy fanlarni o'qitishga keng e'tibor berilgan. Masalan, Sadriddin Ayniyning keltirishicha, ushbu davrda Samarqanddagi madrasalarda diniy bilimlar qatori hisob — arifmetik, handasa — geometriya, tarix, tib, hikmat va tarbiya, mantiq, she'riyat va adabiyot kabi zamonaviy fanlar ham o'rgatilgan. Bundan tashqari, tarixiy manbalarda keltirilgan ma'lumotlarda XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida aynan shu madrasalarda tahsil olgan va shu sarzaminda yashab ijod etgan 300 ga yaqin yetuk mutafakkirlar, shoir va yozuvchilar, olimlar va mudarrislar nomi qayd etiladi.

Madrasalarda ushbu davrda boshqa ta'lim muassasalaridan farqli o'laroq oliy maktablar sifatida dastlabki Yevropa universitetlari kabi asosan dunyoviy bilimlar bilan birga diniy bilimlardan saboq berilgan. Rus sharqshunoslaridan biri D.Logofet tadqiqotlarida ushbu davrda Turkiston madrasalarida mavjud ta'lim tizimini tanqid qilsa-da, Buxoro amirligi muzofotlari va hatto uzoq tumanlarda ham ko'plab madrasalar mavjud ekanligini alohida ta'kidlaydi va ilmiy markaz — Samarqanddagi "Madrasayi oliya"ni, ya'ni, Mirzo Ulug'bek madrasasini "Oliy akademiya" sifatida tilga oladi.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Samarqandda ham muayyan darajada tarixiy-siyosiy, ijtimoiy-madaniy

va ilmiy-adabiy hayotning jonlanganligini kuzatish mumkin. Bu davrda ilmiy va adabiy markaz sifatida tadrijiy ravishda tarixiy va umummilliy fikriy uyg'unlash yuzaga kelgan. Buning yaqqol misoli sifatida o'tgan asr boshlarida Samarqand ilmiy-adabiy muhitida o'z o'rni va mavqeyiga ega bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Ajziy Samarqandiy, Saidahmad Vasliy, Naqibxon Tug'ral Ahroriy, Ubaydullo Subhiy, Ya'qub Oshiqiy, Sipandiy Samarqandiy, Hodiyy Samarqandiy, Rojiy Samarqandiy, Mirzo Akram Fikriy, Muhammad Xatoyi, Hoji Muin ibn Shukrullozoda, Saidrizo Alizoda, Pinado'z, Ibrohim Jur'at, Abdulg'aniy Javdat, Qoriy Maseho Tamhid, Ahmad Ravnaqiy, G'ulommirzo Karimzoda, Faxriddin Rojiy, Orif Gulxaniy, Abdulqayum Qurbiy, Abdulqodir Shakuriy, Mirzokarim Fikriy, Abdujalil Pisandiy, Qori Muhammadrahim Tojiy, Abdulkholiq G'aming, Sharofuddin Xubiy Samarqandiy, Naberaxoja Xil'at, Vadud Mahmud kabi o'nlab siyosatchilar, ma'rifatparvar ziyolilar, olimlar, shoir va yozuvchilar, ilm va maorif fidoiylarini tilga olish kifoyasi.

Mazkur nomlarni birma-bir tilga olishdan maqsad shuki, dastlab yuqorida zikr etilgan adiblar ushbu davr Samarqand ilmiy-adabiy muhitining shakllanish jarayonini belgilab bergan bo'lsalar, ikkinchidan, ushbu shaxslar aynan Samarqandda yetishib chiqqan va buning uchun XX asr boshlarida ushbu mintoqada ilmiy va adabiy muhit mukammal tarzda shakllanganligi, to'g'ri yo'lga qo'yilganligi, ilm va ma'rifat rivojlanishi uchun muayyan zamin yaratilganligini ko'rsatib beradi. Bu esa o'z navbatida Samarqand ta'lim muassasalarida, xususan, Samarqandda mavjud "Madrasayi oliya"larning tarixiy ildizlari, uning ilmiy mavqeyi, nufuzi qayta tiklanganligidan, XX asr boshlarida ta'lim tizimining muayyan tamoyillar asosida evrilishidan dalolat beradi.

Bu davrda Samarqand madrasalarida ta'lim olish uzluksiz ravishda davom etgan. Masalan, taniqli muhojir shoir Xubiy Samarqandiyning tarjimai holida keltirilishicha, Xubiy hijriy 1300–1303/1921–1924-yillarda Boku shahrida joylashgan oliy dorilmuallimiga o'qishga qabul qilingan. Ammo betobligi tufayli o'qishni to'liq tugatmasdan, 1304 (1925)-yili Samarqandga qaytadi va bir muddat madrasada imom-xatiblik vazifasini o'z zimmasiga oladi. Bu borada boshqa bir ma'lumot Naqibxon Tug'ral faoliyatini bog'liq holda keltiriladi. Ma'lumotda keltirilishicha, "Tug'ralning bolaligi ehtimol o'z qishlog'ida o'tgan, ammo uning keyingi faoliyati, madrasa tahsili va ijodiy faoliyati Samarqand bilan bog'liqdir. Shoir Samarqanddagi madrasada tahsil olar va uzoq muddat — 1914-yilgacha Mirzo Ulug'bek madrasasi hujralaridan birida istiqomat qilardi".

Tug'ral buxorolik atoqli shoir Shamsiddin Shohin subhatiga yetib, u bilan do'stlashgan. Shohinni o'z ustozini deb bilgan. Shoir 1919-yili Falg'arda sho'rrolar xizmatiga kirib, o'sha yili qizil askarlar aksilharakatida qatnashgan. Ammo ushbu aksilharakat muvaffaqiyat qozonmagani bois Tug'raldan gumonsirab, bolsheviklar uni 1919-yilda otishga hukm qilishgan. Tug'ral uzoq umr ko'rmagan bo'lsa ham, o'zidan kattagina she'rlar devonini meros qoldir-



gan. Uning devoni 4000 baytdan iborat bo'lib, 1916-yilda Kogon matbaasida nashr etilgan. Naqibxon Tug'ral ilg'or adabiy fikrlar asosida adabiyotni xalqqa targ'ib qilishga intilgan.

Sayidahmad Siddiqiy Ajziy Samarqandiy ham XIX asr oxiri XX asr boshlarida Samarqand ma'rifatparvar adabiy muhitining eng yirik vakili va zullisonayn shoirlardan biri bo'lgan. Ilk bilim madrasada olgan Ajziy Samarqandiy 1865–1928-yillar oraliqida Samarqandda yashab ijod etgan. Ajziy mumtoz she'riyat, aniqrog'i bedilchilik adabiy maktabida tarbiyalangan. Shoir XX asr boshida o'z davrining ilg'or mafkurasi — ma'rifatparvarlik g'oyalari ta'siri ostida she'rlar ijod qilgan. Ajziy ijod bilan birga Samarqand yaqinidagi Halvohiy qishlog'ida yangi maktab ochib, o'qituvchilik faoliyatini bilan ham shug'ullangan.

Samarqandning o'tgan asr boshlarida adabiy muhitida o'z o'rniga ega bo'lgan yana bir yirik namoyandasi Sipandiy Samarqandiy edi. Sipandiy XIX asrda Samarqandda mashhur shoir Mullo Abdulkarim Samarqandiyning taxallusi bo'lib, 1830-yilda tug'ilib, 1909-yilda vafot etgan. Sadriddin Ayniy "Namunayi adabiyoti to'chik" asarida Sipandiy haqida quyidagilarni keltiradi: "Sipandiy mo'ysafid shoirlardan bo'lib, sakson yildan ortiq umr ko'rgan. Yoshligidan she'r va adabiyot bilan shug'ullanib, devon sohibidir. Devoni g'azal, qasida, ruboiy va tarixlardan iborat va 2500 bayt she'rni o'z ichiga oladi. Devonida masjidlar, mehmonxonalar tarixi qatorida inchinun Samarqand arki darvozasi tarixi munosabati bilan bitilgan she'rlar mavjud".

Madrasa ta'limini olgan yana bir ushbu davr adabiyoti namoyandasi Tamhid edi. Ma'lumotlarga ko'ra, Maseho Tamhid 1891-yilda Samarqand shahrida tavallud topgan. Madrasa ilmini Samarqandda olib, shaxsiy mulolaa asosida tarix, adabiyot, falsafa, fors-tojik va arab adabiyotini o'rganib yetuk shoir va olim bo'lib yetishgan. Tamhid xattotlik san'atida ham mohir bo'lgan va asosan an'anaviy adabiyot yo'nalishida ijod qilgan shoirdir.

Sadriddin Ayniyning 1925-yilda nashrga tayyorlangan yuqorida nomi zikr etilgan asarida yana bir ta'lim jonkuyari Vasliy Samarqandiy (1870–1925) to'g'risida ma'lumot keltiriladi. Muallifning Vasliy Samarqandiy hayoti va ijodiy faoliyati bilan bog'liq tarzda keltirilgan aniq bir ma'lumot: "Mullo Sayid Ahmad Vasliy dar Samarqand, Toshkand va Buxoro tahsili kamol namuda, chande dar Buxoro mudarris buda, al'on dar Samarqand az jumlayi mudarisin ast (tarjimai: Mullo Sayid Ahmad Vasliy Samarqand, Toshkand va Buxoroda kamoli tahsili ilm ko'rub, bir muddat Buxoroda mudarrislik qilgan va ayni paytda Samarqandda yetuk mudarrislar jumlasindandir)". Mazkur ma'lumotga ilova tariqasida Sadriddin Ayniy Vasliy tomonidan aynan madrasa ta'limida islohotlar o'tkazilganligi va talabalari uchun fors hamda arab tillarining sarf va nahv(morfologiya va sintaksis)iga oid ta'limiy o'quv adabiyoti yaratilganligidan ham xabardor etadi.

Saidahmad Vasliy 1918–1922-yillarda Mirzo Ulug'bek madrasasida yangicha usul

maktablari uchun muallimlar tayyorlash kursida dars bergan, adabiy to'garak ochib, unga homiylik qilgan. Vasliy publiclist siyosatida o'nlab maqolalar e'lon qilgan edi. O'tgan asr 10-yillarida "Turkiston viloyatining gazetasi", "Sadoyi Farg'ona", "Sadoyi Turkiston" gazetalari bilan hamkorlikda, adabiyotning jamiyatdagi o'rni, xotin-qizlar ozodligi, teatr, ishqiyy g'azallarga munosabat, ta'lim va tarbiya masalalariga bag'ishlangan bu maqolalar o'quvchida katta qiziqish uyg'otgan. Shuningdek, Vasliy "Oyna" va "Al-Isloh" jurnallari bilan hamkorlikda faoliyat olib borib, adabiyot va ta'limning turli jihatlarini yuzasidan maqolalar chop ettirgan. U jaddilar bilan ham yaqin ijodiy aloqalarda bo'lganligi ma'lum.

Vasliy Samarqandda milliy matbuot shakllanishida faol qatnashgan. Uning maqola va she'rlari maorifni isloh qilish, millat ravnaqi kabi masalalarga bag'ishlangan. Vasliy ijodiy merosidan bizgacha 12000 misra she'r va "Armug'oni do'ston" (1909), "Asos ul-islam" (1904), "Tuhaft ul-ahbob" (1912), "Ta'lim va bildurmakning foydaluv o'lmoqi" (1914) kabi 25 risola yetib kelgan.

Lekin podsho Rossiyasi hukumatining Vasliy kabi ilm jonkuyarlarining ta'lim islohotlariga qarshi bo'lganligi ma'lum. Rus sharqshunosi N.Ilimskiy 1879-yil 29-sentabrda Turkistonning ilk tadqiqotchilardan bo'lgan sharqshunos olim N.Ostroumovga yo'llagan xatida madrasalarni aslo isloh qilmaslik, ularning dasturiga dunyoviy, amaliy va ilmiy fanlarni kiritishga yo'l qo'ymaslikni maslahat beradi. Uning fikricha, dunyoviy fanlar mahalliy yoshlar milliy ongining uyg'onishida asosiy vosita bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, Rossiyaning o'lkadagi hukmronligiga qarshi kurashda ular uchun qurol bo'ladi.

Shunga qaramasdan Samarqandda qadimdan davom etib kelayotgan ilmiy-falsafiy bilimlar va adabiyot rivojlana bordi. Bu davrda adabiyot va ta'lim chambarchas rivojlangan. Samarqandlik ma'rifatparvarlar tomonidan ta'lim jarayoni uchun ayrim adabiyotlar tarjima ham qilingan. Masalan, Samarqandda bir necha yangi usul maktablarining ochilishida bevosita tashkilotchilik qilgan Abdulqodiriy Shakuriy (1875–1943) ayni maktablar uchun o'quv qo'llanma sifatida "Jome' al-hikoyat" tayyorlab, nashr ettirgan. Bu kitobdan Krilov masallari va L.N.Tolstoy hikoyalari ham joy olgan edi.

Bu davrda Samarqand va unga tutash hududlarda ham adabiyot rivojlangan. Birgina misol. Kattaqo'rg'onlik Ochilidimurod Miriy (1830–1899) ajoyib epik dostonlar, masnaviyalar yaratgan. U "Ra'no va Zebo" (1884), "Qissayi Salim Javhariy" (1887), "Rustam va Suhrob" (1897), "Majididdin va Faxruniso" (1899) kabi dostonlari, "Gulnoma" va "Choynoma" singari doston-masnaviyalari bilan o'zbek epik adabiyoti rivojiga katta hissa qo'shdi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xullas, keltirilgan ma'lumotlar ko'rsatadiki, XX asr boshlari, xususan, mintaqadagi tarixiy shart-sharoitlar, siyosiy va ijtimoiy voqealilar, turli xil nizolar va qarama-qarshiliklarga qaramasdan Samarqandning nafaqat nufuzli "Madrasayi oliya"larida, balki uning muzofot va tevarak atroflarida mavjud bo'lgan kattayuv-kichik madrasalarda ham ta'lim uzluksiz ravishda davom etgan. Bu holat 1420-yili Mirzo Ulug'bek madrasasi tashkil topgan davrdan to 1920-yilgacha, ya'ni hozirgi Samarqand davlat universiteti tashkil etilishiga tamal toshi qo'yilgan davrgacha davom etganligini qat'iyon e'tiborga olish zarur.

Bobir G'OYIBOV,
SamDU dotsenti, tarix fanlari doktori
Sirojiddin XO'JAQULOV,
SamDU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi

Yozuvchisi yo'q o'zbek bolalar adabiyoti

Qiziqarli kitoblarsiz haqiqiy bolalikni tasavvur qilishning iloji yo'q. Bugun yaratilayotgan kitoblar mazmuni qanchalik yetuk, bolalarimiz uchun davriy nashrlar yetarli? Hozirgi kunda jamiyatning tezkor rivojlanishi natijasida biz kitoblardagi kamchiliklarni ko'rmaymiz. Har qanday kitob do'koniga borib, yuzlab kitob javonlarida taxlangan, turli adabiy janrlarga oid kitoblarni ko'rishimiz mumkin. Afsuski, tanlovimiz uchun taqdim etilgan shuncha kitobga qaramasdan, bolalar adabiyoti deyarli yo'qolib borayotganini hammamiz ham sezmaymiz.

Bolalar adabiyoti, eng avvalo, bolalarning ma'naviy, intellektual va estetik taraqqiyotiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Adabiyot bolaning aql-idrokini va tasavvurlarini oziqlantirib, unga dunyoning go'zal ufqlarini ochib beradigan, shaxsning ruhiy rivojlanishini ta'minlaydigan kuchli vosita hisoblanadi. Bolalarning kitob olamiga kirishi, birinchi navbatda, ular uchun yaratilgan adabiyotlar orqali amalga oshiriladi. Kitob do'konlari bugungi kunda yosh o'quvchilarga qanday adabiyotlarni taklif qilishi mumkin?

Albatta, bolalar uchun kitoblar bor. Ko'pi chet el adabiyotidan tarjimalar va chiroyli muqovalarda nashr etilgan. Bunday ajoyib muqovaning orqasida nima yashiringan? Bu kitoblarning mazmuni qanday? Bu borada ko'p tortishuvlar va qarama-qarshi fikrlar mavjud. Ammo haqiqat shuki, chiroyli ko'rinishiga qaramay, bu kitoblarning aksariyati mazmunan zo'rvonlik va zulm bilan to'yinagan.

Umuman, bolalarga aql-idrokli, mehribon bo'lish, yaxshilik qilishni o'rgatadigan e'taklar, hikoyalar kerak. Bolalar adabiyotining asosiy vazifasi — tarbiyalash. Zo'rvonlik g'oyalari singdirilgan kitoblar bolaning tarbiyasiga, dunyoqarashiga salbiy ta'sir qiladi. Hammasi oddiy bo'lishi kerak. 3-6 yoshli bolalar uchun yozilgan ijod namunalari oddiy g'oya bo'lishi,

yaxshi va yomonni solishtirishni o'rgatishi lozim. Bu — tarbiyalashning mumtoz ko'rinishi. Bu masala bo'yicha bolalar yozuvchilari o'z ishlarini qaytadan boshlash haqida o'yashlari kerak. Biroq bizda bolalar uchun ijod qiladigan yozuvchilarning yo'q. Xudoyberdi To'xtaboyev-chi, deyingiz mumkin. Yaxshiyam shu yozuvchimiz bor. Yana kim? Ishoning, 30-40



yllar bo'lmoqdaki, bizda Xudoyberdi To'xtaboyevdan boshqa bolalar yozuvchisi kashf etilmadi. Shu buyuk adibimizdan millionlab o'zbek bolalari nomidan minnatdor bo'lishimiz kerak.

Bugungi kunda o'n mingga yaqin umumta'lim maktabida millionlab bolalar o'qimoqda. 6-7 million bola uchun bitta bolalar yozuvchisi kam emasmi? Agar chuqurroq o'ylasak, ayni damda adabiyotimizdagi eng og'riqli nuqta — bolalar adabiyoti. Ayni kitoblar olamiga kiradigan, kitobga qiziqish

uyg'onadigan yoshda ularning adabiyotsiz qolib ketishi fojia bilan barobar. Salkam chorak asrdan buyon davom etib kelayotgan bu jarayonda butun boshli bir avlodni yo'qotganimizni sezmadik.

Jahon adabiyotidan o'g'iralmalari ham mukammal tarjima deb bo'lmaydi. Adabiyotda shunday tushuncha borki, asarni tarjima qilish, uni yozishdan ko'ra ko'proq kuch talab qiladi. Tarjimon bilimi va qarashi bilan asar mazmunini boshqa tomonga o'zgartirib yuborishi mumkin. Ayniqsa, adabiy tarjima bolalar adabiyotida alohida o'rin tutishi kerak. Afsuski, keyingi paytda chet el adabiyotidan tarjima qilinayotgan asarlar mazmuni bahsli bo'lib qolmoqda.

So'nggi o'n yil ichida o'zbek bolalar adabiyotida zamonaviy bolaning qiziqishlarini ochib beradigan, uning qahramonliklarini ko'rsatadigan mashhur va qahramon bola obrazi yaratilmadi. Bugungi avlod necha yillardan buyon chet el adabiyotidagi asar qahramonlarini o'zlariga uchun zamonaviy qahramon sifatida kashf etib kelmoqdalar. Achinarlisi, bolalarimiz miyasi, ongida o'rmasgan bu qarashlarni hech qachon o'zgartira olmaymiz. Xohlagan vaqtda tarbiyasidan adashtirishi mumkin. Kattalar uchun yozilgan kitobda yo'l qo'yilgan xatoni tuzatish mumkin, lekin bolalar uchun yozilgan kitobda ketgan xatoni tuzatib bo'lmaydi.

Bolalar uchun yozish oson emas. Ular hech qachon taxmin qilinadigan kitobni o'qimaydi. Bolalarni "loyiha", "mahsulot" sifatida yaratilgan asarlar qiziqitirmaydi. Ularni sirlar, yaxshi yaratilgan qahramonning oldindan aytib bo'lmaydigan xatti-harakatlari qiziqitiradi. O'smirlarimiz uchun roman, she'riy kitoblar yo'qligi ham adabiyotimizdagi yana bir nuqson. Ularning xarakteri shakllanishida yordam beradigan, ma'naviy kashfiyotlarga undaydigan asarlar yo'q. Ko'plab shoir-

larimizning minglab nusxada kitoblari chop etilsa-da, o'n ikki-o'n to'rt yoshli bolalarimizning qalbini hayratga soladigan she'riy kitoblar yo'q. Bugungi kunda bolalar uchun qiziqarli va yaxshi kitob yaratish yozilmagan mavzular haqida ijod qilish demakdir. Shu sababli allaqachon yoritilgan mavzularda ijod qilish yoki shunchaki bor asarni yana qayta tarjima qilib nimagadir erishish nodonlik. Bolalar faqat zavq bilan yozilgan ijod namunalari yaxshi ko'radi.

Bolalar yozuvchisi bo'lish mushkul. Buning uchun bolaqalb, bolafe'l, bolatabiat bo'lish kerak. Ayniqsa, eng kichik yoshdagi bolakayga moslab she'r yozib ko'ring-chi, uning dilini toping-chi, tilini toping-chi...

Odam jismonan baquvvat, bilimli, har ishda chaqqon, epcbil bo'lishi mumkin. Ammo oqko'ngil, iymon-e'tiqodli, insonparvar, yurtparvar bo'lmasa, hayotda o'zidan yaxshi nom, yaxshi iz qoldirolmaydi. Adabiyot va san'at bolaning ana shunday go'zal tuyg'ular, fazilatlar sohibi bo'lib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar adabiyoti muammolari orasida alohida mavzu — bu bolalarni kattalar dunyosiga asta-sekin va og'riqlarsiz olib kirish vazifasidir. Ta'kidlanganidek, bolalar adabiyotidagi "kambag'allik" sabab bu jarayon amalga oshmayapti. Adabiyot bolalarning ko'plab qobiliyatini rivojlantiradi: izlanish, tushunish, tasavvur qilishga o'rgatadi. Yoshiga mos adabiyotlarni mutolaa qilish orqali ijtimoiy hodisalarni anglab katta hayotga bosqichma-bosqich moslashib boradi.

Ajablanarlisi, zamonaviy noshirlar eski asarlarni qayta nashr etishni afzal ko'rmoqda. Bolalarbop yangi kitoblarni yozish esa muammoligicha qolmoqda. Bugungi kunda bolalar uchun yagona mutolaa manbasi — kutubxona. Biroq kutubxonlardagi kitoblarga e'tibor bersak, ularning ham ko'pi qayta nashr yoki she'riy to'plamlar.

Bolalar adabiyotining hozirgi holatiga ko'z yumish — farzandlarimiz hayotining muhim qismlarini yo'q qilish bilan barobar, befarqlik esa yoshlar tafakkuridagi ma'naviy bo'shliqqa sabab bo'ladi.

Ulug'bek YODGOROV,
Respublika bolalar
kutubxonasi xodimi

O'qituvchi minbari

Adabiyot yashasa, millat yashaydi

Tayanch maktablar qoshida tashkil etilgan o'quv seminarlaridan birida Mirtemirning "Shudring" she'ri tahlil qila turib "giryon" so'zining ma'nosini o'qituvchilarga anglatmoq uchun "giry", "giryachi" degan so'zlar bilan bog'lab tushuntirish asnosida dilim qay daraja xufton bo'lgan bo'lsa, Said Ahmadning "Qoplon" hikoyasi haqida gap ketganda "zambilg'altak" so'zi ham adabiyot muallimlariga u qadar tanish emasligidan qattiq ranjdim.

Xo'sh, tilimizdagi shunday so'zlar ma'nosini anglamagan o'qituvchi mumtoz g'azallarmizdagi alfoz jilvasini qanday ilg'aydi-yu o'quvchiga qanday yetkazadi?! Bedil-u Mashrab ijodidan maroq bilan 10 misra o'qiy olmaydigan, o'quvchida adabiyotga ishtiyiq uyg'ota bilmaydigan, yoinki o'zi adabiy nutq me'yorlariga amal qilmaydigan o'qituvchining mil-

lat bolasiga dars berishga haqqi bormi?

Adabiyot muallimimning bir jaydari falsafasi bo'lguvchi edi: "Agar barcha fanlar kishiga ilmiy bilimlar asosini o'rgatasa, adabiyot hayotning o'zini o'rgatuvchi fandır". Qay kuni Respublika ta'lim markazi direktori Shuhrat Sattorovning "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi raisi Alisher Qodi-

rovning maktablarda ona tili va adabiyot o'quv soatlari qisqarishiga bildirgan munosabatiga raddiya sifatidagi bayonotida "Adabiyot o'quvchilarning nutqini o'stiruvchi fan" degan gaplarini eshitib, ochig'i hayron qoldim. Agarki, shunday hisoblar ekanmiz, adabiyot darida odob-axloq haqida saboq beruvchi Buxoriy hadislarini, milliy o'zlik nishonasi bo'lgan

"O'tkan kunlar"ni, bir lahzalik qo'rquv, bir umrlik nadomatga olib kelishi haqida o'git beruvchi "Chinor"(darslikda shunday xulosa olinuvchi parcha keltirilgan)ni, Vatan insonning bir umr talpinadigan eng aziz go'shasi ekanini o'zida ifodalovchi "Hellados"ni olib tashlab, ularning o'rini nutqni o'stiruvchi topishmog'-u she'rlar bilan to'ldirib tashlamog'imiz kerak. Shu orqali o'quv soatlarining qisqarishiga, budget mablag'larining tejallishi va bir necha amaldorning hukumat ko'ziga yaxshi ko'rinishiga erishamiz. Ammo shundoq ham g'arb

ta'sirida ulg'ayayotgan, qadim an'analarimizga hurmatni eskicha qarash sifatida baholayotgan yoshlarimizni boy beramiz.

G'oyaviy xurujlar avj olgan ayni zamonda mustahkam irodali, qat'iyatli, millatparvar yoshlarni kamol toptirishda adabiyotning o'rni beqiyos. Cho'lpon bejiz "Adabiyot yashasa, millat yashar" demagan edi. Shunday ekan, ona tili va adabiyot o'quv soatlarini qisqartirish o'rniga fanning o'qitilishini takomillashtirish samarali yechim bo'lar edi.

Zebuniso JUMAYEVA,
Qumqo'rg'on tumanidagi
11-IDUMning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

“Kecha va kunduz” dan topganim

Shunday asarlar bo'ladi, undagi biz yoqtirgan qahramon bir umrga xotiramizda qoladi. Uni eslaganda go'yo yaqin kishimizni ko'rganday bir olam zavq tuyamiz.

Qodiriyning “O'tkan kunlar” romanini aksariyat kitob ahli “Kumushbibi” deb yodga olganidek, yana bir kumushbibi sijo borki, u Zebi — Zebonadir. Bu munis ism bizga “Kecha va kunduz”ni eslatadi.

Cho'lpon o'zbek xotin-qizlarining obrazini yaratishda o'zgaracha yondashadi. “Kecha va kunduz”da kambag'al, zo'r'o'g'a kun ko'radigan oiladagi o'zbek xotin-qizlarini tasvir obyektini qilib oladi. Cho'lpon asarini endigina yetilib muhabbat yoshiga yetgan Zebining kayfiyatini, holatini bahorga qiyoslash bilan boshlaydi. Adib uyg'onish fasli bahorning yuraklarga zavq beradigan belgilarini tasvirlaydi.

Tug'ilish va yangilanish fasli bo'lmish bahorni har birimiz necha bor kuzatganmiz. Bahor haqida o'z tushunchamiz, tasavvurimiz bor. Lekin ijodkor Cho'lponning tasavvuridagi bahor esa tabiiy bahordan-da go'zalroq va huzurbaxsh tuyuladi. Chunki biz avvallari bahor manzaralarini ko'z bilan kuzatganmiz. Adib tasvirining ta'sirida endi bahorni qalb ko'zi bilan, his-tuyg'ularimiz bilan ko'rishga o'rganamiz.

Asrlar osha eski urf-odatlar iskanjasida bo'lgan qiz-juvonlarimizning timsoli sifatida tanlangan Zebini-biz bilan bizni adib quyidagicha tanishtiradi: “Zebining qish ichi siqilib, zanglab chiqqan ko'ngli bahorning ilk hovuri bilan ochila tushgan: endi ustiga poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi”. Adib tanlagan qahramon hali juda yosh. Uni hayotning ach-chuchugini ham tatib ulgurmagani, oila va undan tashqarida bo'layotgan hayotiy ziddiyatlarni hali u qadar tushunavermaydigan mo'rtgina nihol sifatida tasavvur qilamiz. Qiz tasviridagi ilk ruhiy o'zgarishlar ham tabiat bilan hamohanglikda chiziladi.

Romanning boshida bizga zavq beradigan talqinlar keyinroq endigina g'uncha bo'lib ochilayotgan qizning qismatini o'ylatadigan, ich-ichimizdan achitiradigan manzaralar bilan almashib boradi. Zebi tug'ilib o'sgan oila kambag'al. Biroq gap kambag'allikda ham emas. Kambag'al bo'latirib o'z baxtini topganlar ham oz emas hayotda. Gap Zebi o'sgan oiladagi ziddiyatlarga ko'nikishdadir. Zebi ham oilaning yakkaxo'y yagona farzandi, lekin otasi johilliklari bilan tanilgan: “O'z uyining qabrstonlar qadar jim-jit, xonaqohlari qadar unsiz, o'z ko'ngli qadar tund va xo'mraygan bo'lishini istagan Razzoq so'fi”, deb ta'riflaydi uni yozuvchi.

“Kecha va kunduz” romani markaziga olingan Zebining fojiasi o'sha davr ijtimoiy hayoti va muhiti bilan bog'liq edi. O'sha muhitning tipik vakili qizning otasi—Razzoq so'fidir. Razzoq so'fi “tund va bag'ritosh odam”. Hayotning zimiston qorong'u kechaga aylanishiga sabab bo'lgan zotlar aynan Razzoq so'figa o'xshagan malakasiz, aniq maqsadsiz, bilimsiz omma edi. Ularning hayot haqida, inson haqida, kelajak haqida o'z fikrlari bo'lmagan, faqatgina chalasavod mullalarga ergashib, ularning aqidalarini qaytarishni ham farz, ham qarz deb bilganlar. So'fi o'zining jufti haloli Qurvonbibini na ayol, na inson, na ona deb tan oladi. Ayol zoti so'fi uchun go'yo qadrsiz narsa, shaxsiy bir buyum. Uning nazrida erkak zotining “xotin-xalaj oldida og'iz ochib til qaldiratishi” noraivo. Umr yo'ldushiga bir umr “Fitna, sallamni ber!”, “Fitna, qiz o'lguring qani?”, “Fitna, puldan uzat!” deb muomala qiladi.

So'fining ta'biriga ko'ra xotini ham, qizi ham uning izmidan chiqmasligi kerak. Lekin o'zi ularning tirikchiligi, oilaning kam-ko'stidan tashvish tortavermaydi. Oilani, asosan, Qurvonbibining chevar qo'llari-yu, bo'y yetgan qizning beminnat mehnatlari ta'minlab turadi. Kitobni mutolaa qilganda ayol-qizlarning taqdiri tutqunlik va quillikdan u qadar farq qilmaydigan, erlarning ixtiyori va hukmi bilaningana hayot kechirayotgan o'qizlarning turmush tarzi bilan yaqindan tanishamiz.

Zebi obrazi tasvirida yozuvchining bir ixtirosi

bor. Zebi yaxshigina ashulachi bo'lib tanilib qolgan. Buni qo'ni-qo'shnilari ham, ota-onasi ham yaxshi biladi. Tengdoshlari esa uning sehrli ovozigina hamisha tashna. Yozuvchi Zebiga xos bu fazilatni tasvirlashda bo'yoqni ayamaydi. Zebi bilan aravakash yigit O'lmasjon o'rtasidagi muhabbat chizgilari ham yozuvchi tomonidan mahorat bilan tasvirlanadi. Zebi bilan O'lmasjon orasidagi muhabbat qay darajada lirik kayfiyatlarga yo'grilmasin, muhabbat fojia bilan yakunlanadi. Asil fojia, hali, Zebining kelajagida...

Zebi otasi tengi Akbarali mingboshiga uzatiladi. Akbaralining yosh qizga uylanishiga juda ham ishtiyoq baland emas. Ammo bunda boshqa bir manfaat, boshqa bir ilin bor. U o'g'il ko'rmoqchi. Toki u orttirgan boyliklar, obro'-e'tiborning vorisi bo'lsin.

Xullas, yosh bir qizning bu xonadonga kelin bo'lib kelishi kundoshlarda yangicha bir bezovtalik uyg'otadi. Erlarining og'machiligi ularda merosxo'rlik hissini avj oldirib yuboradi. Shu asnoda ziddiyat, kundoshlar orasida mumkin bo'lgan “jang-u jadal”lar, qora ishlar boshlanadi. Mingboshining bor merosiga ega chiqayotgan Zebini butunlay o'rtadan ko'tarish, yo'q qilish rejasini Poshshaxon tomonidan juda tez va epechilib bilish amalga oshiriladi. Zebining yoshgina umri kundoshlikning yovuz niyatlari yo'lida zaharlangani, juvonmarg bo'lganligi aniq edi. Zebi qotillikning qora kursisiga o'tiradi va Sibirga surgun qilinadi.

Qurvonbibi alamida va jafokash ona, butun hayoti davomida nikoh va diniy talablarni muqaddas bilgan pok ayoldir. U dunyoga kelib mehnat qilishni, boshiga qanday kun kelsa, sabr-bardosh qilib chidashni bildi. Lekin farzand dog'iga bardoshsiz qolgan tabiiy. Ona bechora qizi haqidagi bor haqiqatni bilgach, majnun qiyofasiga kiradi. Ota esa qizi o'chini oladi. Sig'ingan, ishongan eshonini o'ldiradi.

Kitob — insonning do'sti va maslahatgo'yi, ajoyibotlarni ko'rsatuvchi ko'zgu, ovloqda sirdosh, yolg'izlikda do'st, o'z vaqtlarda yordamchi, hasratda shodlik keltiruvchi, fikrlarni nurlantiruvchi ko'p foydali narsadir. Yaxshi kitoblar fikrlarni nurlantiradi, o'quvchining xulqini poklaydi. Zehniga quvvat beradi, ma'naviyatini o'stiradi.

Men sevib mutolaa qilgan buyuk adib Cho'lponning “Kecha va kunduz” asari mahorat bilan yaratilgan. Bizni bu asar mushohadaga, o'ylashga majbur etadi. Sho'rlik onaning o'n gulidan bir guli ochilmagan dilbandini izlab, hali o'lmagan qiziga aza ochib, aytib-aytib yig'lashlari meni iztirobga soldi. So'nggi sa'rlarni o'qib bitirdim-u, onaning adoqsiz armonlaridan ko'zimdan yosh quyilib chiqdi. Hayotga boshqacha nazar bilan bo'q boshladim. Betole o'tgan millatning taqdiriga daxldorligimni yana bir bor his qildim. So'fining “fitna”lariga dosh bergan, ro'zg'or yukinigina emas, davr yukini ko'tara olmay ruhiy mayib bo'lgan Qurvonbibi ko'z oldimizdan ketmaydi. Uning hayot ko'chalarida majnunona sargardon yurishi yuz minglab o'shanday tolesiz o'zbek ayollarining timsoli bo'lib ko'rinadi. Yana va yana Zebining bahor shabadasidek shirin kulgisi, qorong'i kechalarni jaranglatgan shayin ovozi, bolalarcha pokligi ko'z oldimizda namoyon bo'laveradi.

Zebi obrazi ramziy ma'noni anglatadi. Tobelik, soddalik, go'lik faqatgina Zebi obrazigagina emas, o'sha davr kishilariga ham xos xususiyatdir. Milliy ruh asarning boshidan oxirigacha Zebining faoliyatiga rahnamolik qiladi.

Zebining badiiy olami bilan tanishar ekanmiz, ma'naviy jihatdan bir pog'ona yuksaklikka ko'tarilganday bo'lamiz. Xayrlashar ekanmiz, Zebi yaratgan samimiyat va mehr-muhabbat tuyg'ulari qalbimiz to'rida mustahkam o'rnatib qolganini ham sezib qolamiz. Bu go'zallik kishini mukammallikka yetaklaydi.

Manzuraxon AHMADJONOVA,
To'raqo'rg'on tumanidagi
2-maktab ona tili
va adabiyot fani o'qituvchisi

Til nutqda namoyon bo'larkan, nutq egasining qaysi millat vakili ekanligidan darak beradi. Millatning meros qoldirayotgan an'analari-yu qadriyatleri, ijtimoiy hayotidan so'zlovchi xalqning ijod mahsullarida tilning taraqqiyot bosqichlari ham o'z ifodasini topgan. Bayon etmoqchi bo'lgan dolzarb mavzularimizdan biri — til, nutq boyligi haqida: o'zbek tilining tarixi va taraqqiyotida bevosita xalq og'zaki ijodining o'rni beqiyos ekanligi xususida.

Til yashasa, millat yashaydi

umumta'lim maktablarida xalq og'zaki ijodini mukammal o'rganish uchun alohida dastur va qo'llanma zarurati

Xalqning og'zaki adabiyoti asrlar osha o'zlikni, milliy qadriyatni, urf-odatni kuylab kelmoqda. Muqobil ko'p so'zlardan tashkil topgan lug'at boyligi bilan dunyoga tanilgan o'zbek tili yashashi va yashashi sabablaridan biri ana shu xalq vakillarining o'z avlodiga jozibadorligini saqlagan holda taqdim etish mas'uliyatini muqaddas qadriyat deb hisoblaganidir. Bugun xalq og'zaki ijodi namunalarini dastur asosida ona tili ta'limi bilan uzviylashtirib, barcha sinflar kesimida mukammal o'rganilishini yo'lga qo'yish zarurati tug'ilmoqda. Bu ehtiyojning tug'ilishi yosh avlod tilida texnika asrining texnik atamallari, globallashuv hayot tarziga mos muloqot shaklining tezda o'rnatilishi, “ommaviy madaniyat”ning urchishi bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham so'z boyligini rivojlantirish, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan tilni zamon bilan uyg'unlashtirib o'zbek tili rivojlanishiga hissa qo'shishni kechiktirib bo'lmaydi. Bu muammoni yechimlaridan biri — xalq og'zaki ijodini mukammal o'rganishga bel bog'lashdir. O'zbek tilining latofatini his etish, go'zalligini ko'ra bilishda xalq qo'shiqlari, maqollari-yu matallari, topishmog'—u jumboqlari, askiya-yu latifalari, ertag-u dostonlari — barcha-barchasining o'rmi bor. O'quvchining yaxshi tarbiya egasi bo'lishiga ham bog'liq bu jarayon, umumta'lim fanlarini hayot bilan bog'lab o'zlashtirishga tom ma'noda xizmat qiladi: kreativ fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish, ijodiy yondashish, boshqaruvchanlik ko'nikmalari hosil bo'ladi. Maktab darsliklarda xalq og'zaki ijodiga o'rin berilgan, ammo bu mavzumida ilgari surilayotgan maqsadlarni to'liq ocha olmaydi, ya'ni nisman o'rganish bilan natijaga erishib bo'lmaydi. Demak, umumta'lim maktablarida sinflar kesimida barcha o'quvchilarni jalb qilgan holda, uzviylik ta'minlangan dastur va qo'llanma ehtiyoj bor. Bu jarayon har tomonlama o'zini oqlay olishiga ijod namunalarining o'zi kafil bo'la oladi. Har bir ijod mahsulining yaratilish tarixi, ijtimoiy hayotni ifodalovchi davr tili bor. Til tarixi va taraqqiyotining dastlabki ko'rinishi og'zaki adabiyotda namoyon bo'lgan. Jumladan, nutqiy savodxonligi ham. Kishi xalqning eng serma'no va sermahsul so'zlari durdonasidan tuzilgan ijodiyot olamiga sho'ng'ir ekan, avvalo, hikmatli dunyoga sayohat qiladi. Masalan, qo'shiq san'ati har bir insonning umr hamrohi. Xursandchilik vaqtlarida ham, dardga to'la kunlarida ham yurak sasiga hamohang kuylanaveradi. Kuyga tushgan so'zlar esa sehiri bilan sizni o'ziga maftun etmay qo'ymaydi. Demak, so'z sehiri bor ekan-da. Hatto, go'dakning ona allasiga rom bo'lganiga aminsiz. Ona farzandi bilan dillashadi... Til orqali kelgan baxt-u bebaxtlikka guvoh bo'ladi. Yaxshi so'z, yomon so'z oqibatlarini ajratadi, odamlar bilan muloqot qilishni o'rganadi, duch kelgan muammolarni o'z yechimi bilan bartaraf etish malakasini rivojlantiradi. Jumladan tuzish, o'rninga qarab so'z muqobilini tanlash o'nikmasi hosil bo'ladi. O'zbek tili boy lug'ati vositasida tasavvur dunyosi kengayadi, mantiqiy fikrlash malakasi rivojlanadi. Aslida, barcha fanlar kaliti ham bu — til.

O'zbek tilining rivojiga hissa qo'shishning yana bir omili xalq tilini mukammal o'rganishdir. Bugungi avlodning iste'moldagi tilidan sekinlik bilan chiqib ketayotgan so'zlarni saqlab qolish, qadrlash milliy qadriyatlarimizni asrashdek mas'ul vazifadir. Buning qulay yechimlaridan birini xalq og'zaki ijodi orqali ko'rinishimiz mumkin. Xulosa o'rmda ta'kidlash joizki, millatning ko'zguisi tilida aks etar ekan, tom ma'noda tilning vorisi bo'lgan avlod lug'at boyligini bus-butunligicha asrash, qadrlash va kelajakka qimmatli meros sifatida qoldirishga mas'ul va bu uning oldidagi muqaddas burchdir.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi
23-maktab ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

Darslik haqida o'ylarim...

2019-2020-o'quv yilida 8-, 9-sinf "Ona tili" va "Adabiyot" darsliklarining yangi nashri taqdim etildi. Foydalanuvchi sifatida 9-sinf "Adabiyot" darsligi haqidagi ayrim fikrlarimni o'rtoqlashmoqchiman.

2018-2019-o'quv yilida (darslikni yangilash ustida ish borayotgan paytda) maktab o'qituvchilari, ota-onalar va o'quvchilar jamoasidan fikrlar so'ralgan edi. O'shanda darslikda berilgan ayrim parchalarda o'quvchining yosh psixologiyasiga mos bo'lmagan jihatlar borligi (Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar", Cho'lpon "Kecha va kunduz" asarlarida), uzviylik ko'zga tashlanmagan, murakkablik darajasi yuqori bo'lgan mavzular mavjudligi haqida fikr bildirgan edik. Qo'limizdagi yangi darslikda esa bu muammolar bartaraf etilganidan xursandmiz.

Ma'lumki, o'tgan o'quv yili amalda bo'lgan darslikdan 7 ta mavzu chiqarilib, o'rniga yosh avlodni vatanparvar, jonkuyar, insoniy fazilatlar egasi sifatida tarbiyalaydigan, buyuk ma'naviyatimizni yodga tushiradigan, o'quvchilarni xalqaro baholash dasturi talablaridan biri bo'lgan mantiqiy fikrlashga o'rgatadigan 7 ta mavzu kiritildi. Ayrim asarlar, she'rlar almashtirildi.

Mazkur o'quv yilida mavzularning ancha qismini o'quvchilarimiz bilan birga tahlil qildik. "Imom Buxoriy hadisleri" mavzusining 5-sinfdan 9-sinf dasturiga ko'chirilishi ayni muddao bo'ldi. Chunki ularni tushunish o'rta yoshli o'zlashtiradigan o'quvchiga ancha og'irlik qilayotgan edi. 9-sinfda esa o'smir yoshidagi o'quvchilar ushbu hadislar ma'nosini chuqur o'zlashtirib, o'zlari uchun ibrat manbayiga aylantirmoqdalar.

Xoja va uning adabiy merosi bilan bog'liq ma'lumotlarning kiritilishi ham darslikning qiziqarli, o'qishligini oshirishi bilan birga, vatanparvarlik, adolatlik, berilgan umri behuda sarflamaslik

kabi ezgu insoniy g'oyalari tarannum etilgan. Ayniqsa, shoir qalamiga mansub "Kechadur" g'azalining keltirilishi qochirimli so'z o'yiniga nihoyatda boy bo'lib, Xalqaro baholash dasturi uchun quyidagi mantiqiy topshiriqlarni tuzishga asos bo'lib xizmat qildi:

*Kunduz avqotim sening
hajringda nolon kechadur,
Kecha ham zulfing kabi
holim parishon kechadur.
Anbarin zulfung xayolidin
ko'zunga, ey pari,
Yil-u oy-u soat-u kun bori
yakson kechadur.
Ulki, jondin kechadur, sham'i
visolingni ko'rib,
Vah, na xush vaqt-u na xush
soat na oson kechadur.*

1-topshiriq: Xoja qalamiga mansub ushbu nisralar qaysi janrga mansub?

- A) Tuyuq
- B) G'azal
- S) Tarjiband
- D) Qit'a

2-topshiriq: 1-baytdagi "kechadur" so'zlariga berilgan to'g'ri izohni toping.

1. 1-misradagi "Kechadur" so'zi kunduz so'ziga qarama-qarshi qo'yilgan.

(Ha - yo'q)

2. 2-misradagi "kecha" so'zi ravish so'z turkumidir.

(Ha - yo'q)

3. 1- va 2-misradagi "kechadur" so'zining ikkita dan ma'nosi mavjud.

(Ha - yo'q)

3-topshiriq: Geografik bilimlaringiz asosida oy, yil, soat, kun so'zlarini

xronologik tartibda yozing va ushbu atamalar ta'rif bering.

O'quvchilar bunday topshiriqlarni yuqori intiluvchanlik bilan kutib oldilar.

Darslikdagi o'zgarishlardan biri Oybekning "Qutlug' qon" romani o'rniga "Navoiy" romanining kiritilishidir. Romanidan berilgan parchani o'qish va tahlil jarayoni o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otdi. Navoiy bilan bog'liq mavzular 5-11-sinflarda anchagina soatlarni tashkil etsa-da, bu mavzularning aksariyat qismi shoir ijodi bilan bog'liq edi. "Navoiy" romanidan berilgan parcha orqali o'quvchilar buyuk shoirning yirik siyosat arbobi ekanligini kashf etdilar.

Darslikka XX asr o'zbek adabiyoti namoyandalari Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyeva, Shavkat Rahmonning lirikasidan keltirilgan parchalar she'rxon dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi, fikrlashga undaydi. Ayniqsa, Omon Matjonning "Eng so'nggi xazina" deb nomlangan she'ri barcha o'quvchilarning qiziqishiga sabab bo'ldi. O'quvchilar bu mavzu orqali milliy g'ururini asrash kerakligini, usiz milliy erkka erishib bo'lmastligini anglab yetdilar.

Mukammal darslik yaratishning yana bir jihati uning sifati, dizayningning me'yor talablariga mos ekanligi bilan baholana-di. Shu jihatdan ham darslik o'qituvchi va o'quvchilar jamoasiga yoqdi. Ko'pincha ikki qismga bo'lingan darsliklarni o'quvchilarda adashtirib qo'yish kabi holatlar ko'p uchrardi. Yangi darslikning esa qalin muqovali, bir kitobdan tashkil topganligi bu muammoni ham bartaraf etdi. Mazkur darslikni yaratgan Qozoqboy Yo'ldoshev, Valijon Qodirov, Jalolbek Yo'ldoshekovlardan iborat mualliflar jamoasiga o'z minnatdorчилиgimizni bildiramiz.

Gulmehra BAROTOVA,
Shofirkon tumanidagi
3-maktabning ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Kitobga mehr – ustozga, ota-onaga, vatanga muhabbat kalitidir. Shunday ekan, har bir o'qituvchi o'quvchilarda kitob o'qish ko'nikmasini shakllantirishi, rivojlantirishi zarur.

Ota-onalar bilan muloqot daftari

Kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila, xususan ota-onalar bilan hamkorlikning o'rni katta. Mutolaa madaniyatini rivojlantirish maqsadida ota-onalar bilan muloqot daftari yuritganman. Unda quyidagi savollar bor:

1. O'zingizni yetarli darajada kitob o'qiyapman deb hisoblaysizmi? 2. Oilaviy kitob javoningiz bormi? Unda jami nechta kitob mavjud? Nechtasi badiiy asar?

3. Farzandingizning savodxonligi va husnixati bilan kuniga necha daqiqa shug'ullanasiz?

4. Farzandingizni ko'proq nimalar qiziqtiradi? Badiiy asar o'qishga chanqoqligi ham bormi?


Bu savollarga ota-ona farzandi, bobo va momolari bilan hamkorlikda javob yozishga harakat qilayotganligi meni quvontiradi. Kasbdoshlarimga ham bu tajribani o'z faoliyatlarida sinab ko'rishni tavsiya qilaman.

Gulchehra AHMEDOVA,
Zomin tumanidagi
34-maktabning oliy toifali
ona tili va adabiyot o'qituvchisi

O'QUVCHILAR VA ABITURIYENTLAR DIQQATIGA!

Gazetamiz o'quvchilar va abituriyentlarga yordam tariqasida yangi — "Ma'rifat" repetitori" ruknini tashkil etmoqda. Mazkur rukn-ostida oliy o'quv yurtiga qabul imtihonlaridagi majburiy uch fan — ona tili, matematika va O'zbekiston tarixidan topshiriq va testlar muntazam e'lon qilib boriladi. Bu orqali abituriyentlar ushbu fanlarni tizimli va taqvimiy asosda o'rganish hamda bilimlarni o'z vaqtida sinovdan o'tkazib, monitoring qilib borish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, e'lon qilinadigan testlardan variativ sinflar va barcha sinf o'quvchilari uchun sinov testlari sifatida foydalanish mumkin.


Hurmatli abituriyentlar! Imtihonlarga "Ma'rifat" gazetasini bilan birga tayyorgarlik ko'ring!



Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. V-4296. Tiraj 8625.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan materiallarni ko'chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriq qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:
100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Mahmud Rajabov.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
Korxonalar manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

O'ZA yakuni — 21.30 Topshirildi — 22.40

1 2 3 4 5 6



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.